O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI
ARXIVSHUNOSLIK YO'NALISHI

XUSAINOVA MUHABBAT ABDULXAY QIZINING

"FARG'ONA VODIYSIDA ARXIVLARNI VUJUDGA KELISHI TARIXI"

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Ilmiy rahbar: X.I. Mamadaliyev

Namangan – 2016

MUNDARIJA

	KIRISH…….....	3-9
I-BOB.	**FARG‘ONA VODIYSIDA ARXIVLARNI VUJUDGA KELISHI……**	10-21
1.1.	Farg‘ona vodiysida arxivlarning shakllanish tarixi……..	10-15
1.2.	Sobiq ittifoq davrida Farg‘ona vodiysi viloyatlarida arxiv ishining tashkil etilishi……...	15-21
II-BOB.	**MUSTAQILLIK YILLARIDA FARGONA VODIYSIDA ARXIV ISHI……...**	22-45
2.1.	Andijon viloyatida arxiv ishi……	22-30
2.2.	Namangan viloyatidagi arxivlar faoliyati…….	30-38
2.3.	Farg‘ona davlat arxivida ish yuritishni tashkil etish……	38-45
	XULOSA.....	46-48
	ILOVALAR.....	49-57
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	58-59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O’zbekiston tarixini o’rganish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma'naviy islohotlar milly qadriyatlarni qayta tiklanishi, targ’ib qilinishida va har tomonlama rivojlanishiga asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda, shu bilan birga ushbu jarayonlar uzoq va yaqin tarixiy o’tmishni haqqoniy o’rganish, bo’lib o’tgan voqea, xodisalarni xolis anglash, ularni kelgusi avlodga yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda moddiy va ma'naviy merosimizni xolis o’rganishga jamoat qiziqishining ortishi, xususan, milliy tariximizning bebaho manbalarini o’zida jamlagan arxiv hujjatlarini ilmiy o’rganish, O’zbekiston Respublikasida arxiv tashkilotlari faolyatining ijodiy tajribasini umumlashtirish ehtiyojini oshirdi.

Birinchidan, arxivlar nafaqat hujjatli ma'lumotlar majmuasi bo’libgina qolmay, ularda ish yuritishning o’ziga xosligi tarixiy tajriba asosida o’z aksini topgan. Shu sababli, ilmiy izlanishlar darajasi ma'lum ma'noda arxiv ishini yo’lga qo’yish bilan uzviy bog’liq.

Ikkinchidan, mustaqillikka qadar sovet davri ijtimoiy-siyosiy sharoitida O’zbekistonda arxiv ishini ilmiy o’rganishga, tarixiy faktlarga xolis yondashish hamda mahalliy xalqning milliy qadriyatlarini to’g’ri talqin qilishga davr siyosati imkon bermagan.

Uchinchidan, mustaqillik davrining dolzarb vazifalari arxiv idoralarining ijtimoiy funksiyasini qayta baholash zaruriyatini keltirib chiqardi. Bugungi kunda arxivlaming xalqimiz madaniy merosini saqlovchi ma'naviy boylik markazi sifatida o’rganilishi, ularning davlat hamda jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish va ko’rsatib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Hozirda arxiv muassasalari millat ma'naviy potensialini oshirishning yetakchi dastagi hamda ma'naviy-axloqiy takomillashuv kalitlaridan biri sifatida safarbar qilingan. Shu ma'noda, I.A.Karimov asosli ravishda ta'kidlaganidek: "Modomiki,

o’z tarixini bilgan, undan quvvat oladigan xalqni yengib bo’lmas ekan, biz xaqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur"[1].

O’zbekiston Respubiikasining mustaqillik sharoitida jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, arxiv ishi sohasida ham tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ushbu davrda O’zbekistonda arxiv ishini tashkil etish, boshqarish, arxiv hujjatlarini jamlash, butlash, ularni saqlash, hujjatlardan foydalanishni tashkillashtirish va boshqa bir qator ishlar tartib-qoidalarini o’zida aks ettirgan qonunlar va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlami amalga tadbiq etilishi soha rivojini ta'minlashda amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Shunday amaliy ishlardan biri O’zbekistonda Davlat arxiv fondi o’rnida O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining tashkil etilishidir. Respublika Milliy arxiv fondi Davlat arxiv fondidan farqli o’laroq davlat va nodavlat arxiv fondlarini o’zida jamlangani bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, arxiv ishini boshqarish, arxiv hujjalarini davlat ro’yxatidan o’tkazish, arxivlarni zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, hujjatlaming elektron nusxalarini yaratish borasida qilinayotgan ishlar e'tiborga molikdir.

Shuningdek, Respublika Milliy arxiv fondining bo’linmas tarkibiy qismi hisoblangan Farg’ona vodiysidagi davlat arxivlari va u yerda saqlanayotgan fondlar tavsifi, xususan, mustaqilhk yillarida vakolatli davlat organlari tomonidan ishiab chiqariigan huquqiy-meyoriy hujjatlar asosida Farg’ona viloyatidagi arxivlar ishining tashkil etilishi va rivojlantirilishi masalalarini o’rganish arxiv ishi sohasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O’zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklashda respublikamiz arxivlarida saqlanayotgan manbalaming ahamiyati kattadir. Ilgari o’rganilmagan, istibdod mafkurasiga mos tushmagan arxiv hujjatlarini ilmiy muomilaga kiritish, asl

[1] Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йук. Тошкент.1998.Б.25

mohiyatini ochib berish o’z yechimini kutayotgan masalalarni yoritish dolzarbligini oshiradi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek[2]. "O’zbek olimlarining kucli-g’ayratlari bilan tariximizning ko’pdan ko’p g’oyat muhim sahifalari... yangidan kashf etildi".

Ma'lumki, mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasida o’ziga xos arxiv tizimi joriy etilgan bo’lib, ularing ichida Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlari ham o’ziga xos o’rin tutadi. Shu kungacha tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan bu dolzarb muammoni tadqiq etish, arxiv fondi tashkil qilishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari, oqibatlarini tahlil etish amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Hujjatlarda tarixning har bir lahzasi, sanasi tilga kiradi, sodir bo’lgan voqea xodisalarni hikoya qiladi. Hozirgi kunda "0'zarxiv" agentligi tizimida 3 ta Markaziy davlat arxivi, Qaraqalpog’iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi va uning 10 ta filiali, 12 ta viloyat davlat arxivi va ulaming 75 ta filiali va Toshkent shahar davlat arxivi faoliyat ko’rsatmoqda. Respublikaning jami 103 ta davlat arxivlarida 8 mln 300 mingdan ortiq saqlov birligidagi hujjat saqlanadi. Ulardan 6 641 618 tasi boshqaruv hujjatlari, 40 894 tasi ilmiy-texnikaviy hujjatlar, 19019 tasi kino, 232384 tasi foto, 15083 tasi ovozli hujjatlar va 60391 tasi shaxsiy kelib chiqishga oid hujjatlardir. O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga 6 mln 600 mingdan ortiq hujjat kiritilgan. Xususan, Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlarida 12206 ta fond tarkibida 560200 saqlov birligidagi hujjatlar saqlanmoqda.

Bitiruv-malakaviy ishining davriy chegarasi. Tadqiqotda Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlarini tashkil topgandan boshlab, to 2015-yilgacha bo’lgan davrdagi faoliyati va unda jamlangan hujjatlar tavsifi imkon qadar yoritiladi.

Bitiruv-malakaviy ishining o’rganilganlik darajasi. Sovet davrida arxiv tarixiga oid bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo’lsada, xalqimizning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosi buzilib, bir yoqlama o’rganilingan. Aslida esa

[2] Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 124

O’zbekiston Prezidenti LA.Karimov qayd etganidek: "Xo’sh o’tmishda, xoh bugun bo’lsin, boshqa millat, davlatni o’ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo’q qilish, undan judo etishga intiladilar".

Mavzuning tarixshunosligi davriy farqlarga ega bo’lgani uchun uni ilmiy nuqtai nazardan ikki guruhga ajratib tahlil qiiish maqsadga muvofiq:

- sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar va ilmiy-ommabop maqolalar;
- mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruhga G.A.Belov, L.P.Volkov, M.A.Didenko, LN.Kuntikov, K.G.Mityaev, V.Novospasskiy, S.Morozov va boshqalar tomonidan chop ettirilgan ilmiy asarlar hamda o’quv uslubiy qo’llanmalami kiritish mumkin"[3]. Mualliflar arxiv hujjatlari nashr ettirish tushunchasi, arxeografiya nazariyasi va metodikasi hamda arxiv hujjatlami ekspertiza qilish, ulami davlat saqloviga qabul qilish, saqash, ulardan foydalanishni tashkil etish masalalarini yoritib berishishgan. Ushbu guruhga tegishli ilmiy adabiyotlarda Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlari tarixiga oid aniq ma'lumotlar bo’lmasada, ularda sovet davridagi arxivlar faoliyati, umuman arxiv ishi nazariyasi va amaliyotiga oid qator masalalar atroflicha yoritilgan.

Ikkinchi guruh ilmiy nashrlar, xususan, "O’zarxiv" agentligi axborotnomalarini, arxivlaring asosiy ish qoidalari, nizomlarini keltirilgan me'yoriy hujjatlar hamda "O’zarxiv" agentligi va O’zbekiston Respublikasining viloyat davlat arxivlari faoliyatlarini yoritilishiga bag’ishlangan yangi ilmiy nazariy talablar asosida yozilgan tadqiqotlami kiritish mumkin. M.S.Isakova, V.G.Iofe, R.N.Ne'matov, I.A.Alimov, U.Jumaev, D.M.Murodullaeva va boshqa

[3] Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела в СССР. – М., 1946; Морозов С. Фотография в науке. – М., 1955; Белов Г.А. Теория и практика архивного дела в СССР. Учебное пособие. – М.: Типография Воровского, 1958; Волков П. Архивные фотодокументы и пресса. – Сов.архивы, 1966. №2; Диденко М.А. Художественные оформление наглядных средств агитации и пропаганды. – М., 1971; Кунтиков И.Н. Кинодокументы в научных исследованиях. – Восп архивоведения. 1962 №2; Новосспаский В. Фотография в книге. – М.,1973; Издание документов в научно-популярных целях. – М., 1975.

bir qator mualliflar tomonidan e'lon qilingan tadqiqot ishlari bunga misol bo'ladi[4]. Ushbu ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida O'zbekistonda arxiv ishi sohasida mustaqillik yillarida erishilgan yutuq hamda bartaraf etilishi lozim bo'lgan kamchiliklar ko'rsatib berilgan. Ushbu guruhga kiritilgan huquqiy- meyoriy hujjatlar hamda mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarda mamlakatimiz arxiv muassasalarida, xususan, Farg'ona viloyat davlat arxivlarida ish yuritishni tartibga solish, arxiv ishi nazariyasi va amaliyotida yangi tartib-qoidalami yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llash masalalari yuzasidan qator muhim malumotlar jamlangan Bunda keltiriladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar respublika arxiv muasasalari, xususan Farg'ona, Andijon, Namangan viloyat davlat arxivlariida mavjud.

Bitiruv-malakaviy ishining manbaviy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi arxiv sohasiga oid qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, "O'zarxiv" agenthgi yillik statistik ma'lumotlari, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyat arxiv ishi boshqarmasining 1996-2013 yillarga oid hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining 17-fondi "Farg'ona viloyati boshqarmasi" fondlari hamda Farg'ona, Andijon, Namangan viloyat davlat arxivlarining fond hujjatlaridan foydalanildi. Tadqiqot ishida davriy matbuot materiallaridan "O'zarxiv" Agentligining Axborotnomasi, O'zR qonun hujjatlari to'plami materiallaridan foydalanilgan bo'lib, ularda chop etilgan maqolalar viloyat arxiv ishini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

---

[4] Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980 г.г.) Опыт и проблемы.: Дисс... на соиск. ученой степени канд.ист.наук. – Т.: ТашГУ, 1995; Исакова М.С. Архивы – хранища фактов истории. // Народное слово, 18 апреля 2001. – С.3; O'sha muallif. O'zbekistonda arxiv ishini rivojlantirishning huquqiy asoslari. // Qonun himoyasida, 2003. – №10. – B.31-33; O'sha muallif. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012; I.A.Alimov. Arxivshunoslik. – Andijon, 2005; Alimova N.I. Noyob qo'lyozmalar taqdiri. // Muloqot. – 2001. – №4. – B. 34-36; N.Ibrohimov. Dunyoga sochilgan xazina. // "O'zarxiv" agyentligi axborotnomasi. // 2003. – №30. – B.4-15; Arxiv ishi va ish yuritish sohasida elektron texnologiyalarni keng joriy etish. // "O'zarxiv" agentligi axborotnomasi. 2005. – №35. – B.21-33; Иофе В.Г. Новое в управлении архивным делом Республике Узбекистан. // Отечественные архивы. – 2006. – №1. – С.126-128; Ражабов Қ. Архив ҳужжатлар салтанати // Ўзбекистон овози, 1999 йил 11 май; Хабибуллаев Н. История письменности и рукописной книги народов Средней Азии (IX – начале XX вв.) – Т.: УМЭД, 2008; Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи, Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Т., 2010;

Mavzuni yangi ma'lumotiar bilan boyitish maqsadida Intemet saytlaridan ma'lumotlar ko’rib chiqildi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi O’zbekistonda arxiv ishining shakllanishi va rivojlanishida Farg’ona, Andijon, Namangan viloyat davlat arxivlarining o’rnii va ahamiyati yoritib berishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun aniq belgilangan quyidagi vazifalar ilgari surildi:

- O’zbekistonda viloyat arxivlari tashkil topishiga asos bo’lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlari o’rganish, arxiv tarixiga oid arxiv hujjatlarini ilmiy taxlil etish;
- Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlari tarixini yoritish;
- Viloyat davlat arxivining manbaviy asosini tashkil etuvchi tashkilotlar, muassasa va korxonalar hujjatlarining o’ziga xosligini aniqlah va tahlil etish;
- Arxivning mustaqillik yillaridagi faoliyatini tadqiq etish: islohotlar va ularning natijalarini talqin etish;
- Respublikamizda arxiv ishi sohasida qabul qilingan qonun hujjatlarining viloyat davlat arxividagi amaliy ijrosini yoritib berish;
- Viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar tarkibini tasniflash;
- Viloyat arxivida zamonaviy axborot texnologiyalami qo’llanishi, jumladan, hujjatlaming elektron shaklini yaratish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshirish borasidagi ishlami tahlil etish.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqot natijalari asosida umumlashtiruvchi xulosalar hamda davlat arxivi faohyatini yanada takomillashtirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish belgilab olindi.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqotda maxsus ilmiy muammo sifatida o’rganilgan dolzarb masala, ya'ni Farg’ona viloyatidagi davlat arxivlarii tarixi va uning hujjatlari ilk bor kompleks tarzda tadqiq etildi. Shuningdek, arxivni MAF hujjatlari bilan jamlash, saqlash, foydalanishga oid faoliyati va arxiv manbalarining O’zbekiston tarixini o’rganishdagi ahamiyati ochib berildi. Olib borilgan tadqiqotlar davlat arxivi faohyatini tashkil etishda

sezilarli darajada amaiiy tajriba to’planganhgini, viloyat tarixini yorituvchi hujjatlami muntazam ravishda jamlash, but saqlanishini ta'minlash, davlat hisobini olib borish va hujjatlardan ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish bo’yicha ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslanib ish olib borilayotganligi o’rganildi. Biroq, amaldagi arxiv ishi holatida ayrim kamchiliklar mavjudhgi, xususan, malakali arxiv mutaxassislarining yetishmasligi, arxivning moddiy-texnika bazasi yetarli darajada emashgi, arxiv ishiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Mazkur masalalami hal etish yuzasidan nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan ma'lumotlar, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar avalo Farg’ona, Andijon, Namangan viloyat davlat arxivlari ishini takomillashtirish, qolaversa, O’zbekistonda, xususan, viloyat davlat arxivlari faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishda qo’llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari bitiruv malakaviy ishi materiallaridan arxivshunoslik ixtisosligi bo’yicha tahsil olayotgan oliy va o’rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga ma'ruza matnlari, maxsus kurs, ochiq darslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Mazkur tadqiqot ishi kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, shuningdek ilovalardan iborat.

I.BOB. FARG'ONA VODIYSIDA ARXIVLARNI VUJUDGA KELISHI

1.1..Farg'ona vodiysida arxivlarning shakllanish tarixi.

O'rta Osiyoda qadimgi zamonlardan buyon arxivlar mavjud bo'lgan. Bu yerda qadimgi arxivlarning paydo bo'lishi ilk davlatlarning vujudga kelishi hamda yozuvning tarqalishi bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda xo'jalikning rivojlanib borishi, davlatchilikning shakllanishi natijasi o'laroq turli xo'jalik, soliq va yuridik hujjatlar yaratila boshlandi. Ayni paytda bu hujjatlari ma'lum muddat davomida yoki doimiy ravishda saqlashga ehtiyoj tug'ildi. Natijada ularni saqlashga mutassadi bo'lgan shaxslar va muassasalar paydo bo'ladi. Bu muassasalar hozirgi kunda arxivlar deb ataladi. Afsuski, biz O'rta Osiyodagi eng qadimgi arxivlar haqida yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Bizgacha yetib kelgan oz sonli yozma manbalarda ular haqida ma'lumot berilmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zi tarixchilar va arxivshunoslar orasida chor Rossiyasi istilosiga qadar "O'rta Osiyo davlatlarida arxiv bo'lmagan" degan fikr mavjud bo'lgan. Masalan, taniqli sharqshunos olim A. A. Semyonov 1922-yilda quyidagilarni yozgan edi: "Musulmon Sharqida, jumladan Turkistonda bizning tushunchamizdagi arxivlarni tasavvur qilolmaydilar, negaki idoraviy ishlar nihoyatda boshqacha tarzda olib borilgan". A. V. Chernov esa o'zining "SSSRda arxiv ishi va uni tashkillashtirish tarixi" nomli o'quv qo'llanmasida to'g'ridan-to'g'ri "1917-yilga qadar O'rta Osiyo davlatlarida hech qanday arxiv bo'lmagan", deb yozadi[5].

Bizning o'lkamiz tarixi hususan, Farg'ona vodiysi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma`lumot beruvchi yodgorliklardan e`tiborga moligi Yuqori Zarafshondagi Qal`ai Mug`dan topilgan so'g`d yozuvidagi hujjatlardir.

So'g`d tilidagi yozuvlar asosan IV-X asrlarga oid bilib, turli mazmundagi yuridik hujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar), hukumdorlar (So'g`d, Turk va Farg`ona hukumdorlari) o'rtasidagi

[5] Gofurov N.O. Arxivlarning umumiy tarixi va jahonning yetakchi arxivlari // ma'ruzalar matni. Namangan.2013.-B. 21.

yozishmalar, xo’jalikning kundalik turmushiga oid hujjatlar, masalan, xarajatlardan iborat hujjatlar hamda farmonlardan iborat.

Bular orasida 1932 yil boshlarida qadimgi Sug‘diyona davlatining Mug‘ tog‘lari xarobalaridan Devashtich arxivi katta ahamiyatga ega. Qazilmalar natijasida VIII asrga oid 80 dan ortiq qo‘lyozma hujjatlar topilgan [6] bo’lib bulardan 74 tasi qadimgi so’g`d, 1 donasi arab, 3 nafari xitoy va 1 tasi turk tilidadir. Ular har xil materialga: charmga, taxtaga va qog`ozga yozilgan. Hujjatlar so’g’d dehqoni va podshosi Divashtich (708-722 y.y.) va yirik mansabdorning (framandar), shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bilib, So’g’dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o’rganishda muhim manba rolini o’ynaydi.

Mug` qal’asidan topilgan hujjatlar A. A. Freyman, A.V.Vasil’ev, I. Y. Krachnovskiy, M. N. Bogomolov, V. A. Livshits, hamda O. I. Smirnovalar tarafidan chuqur o’rganilgan.

Mug` hujjatlarining va ular topilish tarixi va ular haqidagi dastlabki ma`lumotlar 1934 yili maxsus to’plam shaklida («Sogdiyskiy sbornik», Leningrad, 1934) e’lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Yu.Krachnovskiy va A.A.Freyman tomonidan 30 yillari e`lon qilindi. Yuridik hujjatlar hamda maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan (sogdiyskie dokumenti s gori Mug, chtenie, perevod, kommentariy. II chiqishi, M., 1962) 1962 yili V. A. Livshits tomonidan chop qilindi[7]

1961 va 1965 yillari O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix va arxeologiya instituti ekspeditsiyasi Afrosiyobda V-VII asrga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo’lib ular orasida oq kiyim kiygan Chag`oniyon elchisining surati ham bor. Uning otasiga sug’d tilida 16 satrdan iborat ishonch yorlig`i ham yozib qo’yilgan.

---

[6] Сулаймонов А. Н. Усмонов Б. Б. «Архившунослик» фанидан ўқув – услубий мажмуа (ўқув қўлланма) Гулистон – 2008.-Б. 12.

[7] Alimov I.A. Arxivshunoslik. – Andijon, 2015. Б.45.

Muhim hujjatlar Sug'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo kolonniyalaridan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa A.Steyn (1862-1943) tarixidan 1907 yili Dun'xuan (Xitoyning Gan'su viloyati) va Turfonda (Sharqiy Turkiston) topilgan hujjatlar, Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7-8 kilometr shimolda joylashgan Kulonsoy hamda Teraksoy daryalarida qoyatoshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida e`tiborga ega. Bu yozuvlar IV-XI asrlarda So'g'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O'rta Osiyo bilan Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda so'g'diylarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi[8].

VII va VIII asr boshlariga mansub hujjatlarda So'g'dning siyosiy tarixi, huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma`lumotlar keltiriladi. Masalan, Qal'ai Mug' hujjatlari orasida Uttegin nomli yigit bilan Dundg'uncha ismli ayol o'rtasida tuzilgan nikoh guvohnomasi qayd etilgan. Bu hujjat asosida tuzilgan bitimga binoan Dundg'unchaning ixtiyori bilan qonunga muvofiq Uttegin sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, zeb-ziynat bilan ta`minlamog'i va hurmat izzat qilmog'i lozim edi. O'z o'rnida Dundg'uncha ham Utteginni sevimli va ardoqli er sifatida tutmog'i, uning baxtli turmushi haqida qayg'urmog'i va uning buyrug'larini qonun kabi tinglamog'i lozim. Shuningdek hujjatda eru-xotinlardan biri ikkinchisining roziligisiz nikoh bitimini buzmaslik shartlari bayon etiladi. Jumladan agar Uttegin Dundg'unchaning ijozatisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda Dundg`unchaga 30 dinoariy sof kumush draxma tovon to'lash va uni na xotin va na xizmatkor sifatida tutib turmay ozod etishi sharti bilgan. Hujjatda keltirilgan ma`lumot shuni aniqlab beradiki, VII-VIII asrlarda So'g`d jamoasida inson haq-huquqlari va axloq qonun qoidalari, xususan nikohlanayotgan shaxslarning o'zaro mulkiy munosabatlari, ayniqsa qo'yovning kelin oldidagi burchi va majburiyati o'z zamoni uchun juda adolatli ravishda belgilab qo'yilgan.[9]

[8] O'sha joyda
[9] Alimov I.A.Arxivshunoslik –Andijon, 2015. Б.67.

Lekin Qadimgi davlatlarning, xonliklarning XIX asrgacha bo'lgan hujjatli manbalari baxtga qarshi bizgacha saqlanmagan. O'zaro feodal urushlari, vayrongarchiliklar natijasida arxiv hujjatlari yo'q bo'lib ketgan. Qo'qon xonlari arxivlarida XIX asrga oid hujjatlarning bir qismi saqlangan xolos, Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyingi davr arxivlari, ya`ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr hujjatlari to'la saqlangan.

Qo'qon xonligi arxivining taqdiri Xudoyorxonning 1875-yilda Qo'qondan qochishi, yo'lda uning karvonini talanishi, Qo'qondagi xon saroyi qo'zg'olonchilar tomonidan talon-taroj qilinishi natijasida arxiv hujjatlarining asosiy qismi nobud bo'ldi. Uning saqlanib qolgan qismi esa Qo'qonni zabt etgan ruslar qo'liga tushdi. General fon Kaufman Qo'qon xoni arxivining saqlanib qolgan hujjatlarini Sankt-Peterburgdagi kutubxonaga va qisman Toshkentdagi Xalq kutubxonasiga taqdim etdi. Ularni 1936-yilda eslatib o'tilgan kutubxonada izlanishlar olib borgan sharqshunos olim P. Ivanov topdi. Ayni paytda P. Ivanov kutubxonaning qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan hujjatlarning bir qismi Farg'ona tarixiga oid fors-tojik tilidagi hujjatlar ekanligini aniqladi. P. Ivanov tomonidan hammasi bo'lib turli hajmdagi 120 ta daftar topildi. Hujjatlar 1822-1872 – yillarga tegishli edi[10].

Keyinchalik Toshkent Xalq kutubxonasi (hozirgi A. Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi) dagi barcha sharq qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondiga topshirilgan. Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin kutubxonasining qo'lyozmalar fondidagi Qo'qon xonligiga tegishli arxiv hujjatlari 1962-yilda Toshkentga qaytarilgan va hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi fondlarida saqlanmoqda.[11] Qo'qon xoni arxivi haqida tarixchi olima A. L. Troitskaya 1968-yilda "Katalog arxiva kokandskix xanov XIX v." nomli kitobini e'lon qildi[12.] Mazkur kitobda mingdan ko'proq hujjatlarning tavsifi keltirilgan. Qo'qon xonligi

[10] Gogurov N.A. Arxivlarning umumiy tarixi va jahonning yetakchi arxivlari // ma'ruzalar matni. Namangan.2013.-23-24.b
[11] O'sha joyda
[12] Сулаймонов А. Н. Усмонов Б. Б. «Архившунослик» фанидан ўқув – услубий мажмуа (ўқув қўлланма) Гулистон – 2008.-13.b

arxivi hujjatlarini o'rganish borasida t.f.d., prof. A. Nabievning ham xizmatlari kattadir.

O'lkada mustamlakachi ma'muriyatning faoliyati jarayonida ko'plab hujjatlar vujudga kelgan. General -gubernatorlik mahkamasidan tortib to qishloq boshqaruv idoralariga qadar hujjatlar yaratilib, ular bevosita shu muassasalarning o'zida saqlangan. Shunday qilib, chor mustamlakachiligi davrida Turkistonda har bir muassasa qoshida idoraviy arxivlar vujudga kelganiligini kuzatamiz. Ammo bu idoraviy arxivlarni o'zaro bog'lash va yagona davlat arxivlari tizimini barpo etish e'tibordan chetda qoldi.

Turkistonda vujudga kela boshlagan idoraviy arxivlarning faoliyati sust tashkillashtirilgan edi. Ko'p idoralarda arxivlarni saqlash uchun maxsus ajratilgan xonalar yo'q edi. Shu sababdan, hujjatlar ko'pincha zax qaznoqlarda saqlangan.

Turkistonda hujjatlarni ko'p miqdorda yo'q qilinishi odat tusiga kirgan edi. Misol tariqasida quyidagi faktni kelitirish mumkin. Farg'ona viloyati harbiy shtabida 25 yil davomida yig'ilib qolgan hujjatlarni saralash chog'ida 105 pud "keraksiz" arxiv materiallari savdogarlarga o'rov sifatida sotib yuborilgan. Tez orada muhim ahamiyatga ega hujjatlar bozorlar va rastalarda ko'zga tashlanib qolgan edi[13].

Graf K. Palen 1908-1909-yillarda Turkiston o'lkasini taftish qilib, o'z hisobotida uezd idoralarida ham arxiv ishlari yomon ahvolda ekanligini qayd etadi. Jumladan, Andijon uezd boshqarmasida arxiv hujjatlari pastak, tomi loysuvoq, zax qaznoqda joylashtirilgan ekan. Bu binoning omonatligi bois 1902-yilning dekabrida sodir bo'lgan zilzila paytida tomi ag'anab tushib, hujjatlar loy va tuproqqa qorishib qoladi. Natijada ularni yoqib yuborishdan boshqa chora qolmaydi.

Taftish bo'yicha hisobotda ayrim hujjatlar, hatto ba'zi uezd boshqarma boshqa viloyatlarda ko'pgina volost mahkamalari mirzolari mahkamaviy tartib

[13]Gofurov N.A. Arxivlarning umumiy tarixi va jahonning yetakchi arxivlari // ma'ruzalar matni. Namangan.2013.-Б.23-24.

haqida hech qanday tasavvurga ega emas, degan xulosaga keldilar. Jumladan, kelgan va ketgan xatlar ro'yxat qilib borilmagan, tugallangan ishlarga qayd-yozuvlar qo'yilmagan edi. Mahalliy tashkilotlar - qozilar, boylar, oqsoqollar hujjatlari joylarda 1917-yilga qadar saqlanib qoldi. Lekin bundan keyingi voqealar, ya'ni inqilob, fuqarolar urushi va istiqlolchilik harakati davrida ularning ko'pi yo'q bo'lib ketdi[14].

1.2. Sobiq ittifoq davrida Farg'ona vodiysi viloyatlarida arxiv ishining tashkil etilishi.

1917 yilga okgyabr voqealariga qadar hujjatlar xar bir idora va tashkilotning o'zida saqlangan. Arxivlar tarqoq holda bo'lib, hujjatlar bir joyda yig'ilmagan, markazlashmagan edi. Oktyabr to'ntarishidan keyin Turkiston RSFSR tarkibda avtonom respublika sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Rossiya hukumati chiqargan barcha qonunlar Turkiston uchun ham tegishli edi.

Shuni aytish kerakki, RSFSR hukumati 1918 yil 1 iyunda «Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida» dekret qabul qildi. Bu dekret asosida barcha tarqoq arxivlar markazlashdi.

Shundan kelib chiqqan xolda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti «Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Bu qarorga asosan 1917 yilga qadar bo'lgan barcha davlat arxivlari tugatildi.

1935 yil maxalliy arxivlar tarixida katta vokea sodir bo'ldi. SSSR MIK shu yili barcha tumanlarda tuman davlat arxivlarini tuzishni tavsiya kildi. UzSSR MIKning 1935 yil 21 dekabr' karoriga binoan respublikaning barcha shahar va tumanlarida davlat arxivlari tashkil qilindi. 1936 yili respublikada

[14] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. – Б.4.

Andijon, Namangan, Qo'qon shahar arxivlari va 31 ta rayon arxivi faoliyat ko'rsatmoqda edi[15].

1941 yili UzSSR tarkibida Andijon, Namangan viloyatlari tashkil etilishi munosabati bilan viloyat boshkarmasida Arxiv bo'linmalari va viloyat davlat arxivlari tashkil qilindi. 1946 yil Oltinko'lda, 1949-yil Poytug'da Andijon viloyati arxiv filiallari tashkil etildi[16]. 1962 yilda Namangan viloyati arxivining Chust bo'limi ochilgan. Namangan viloyat davlat arxivi 1936-yil Namangan davlat arxivi bazasi asosida tashkil etilgan. 1941-yilda Namangan viloyat davlat arxivi deb qayta nomlangan. 1960 yildan Andijon viloyat davlat arxivining Namangan shahar filiali sifatida faoliyat yuritgan[17].

1968 yilga kelib, Namangan viloyat davlat arxivi deb kayta nomlangan. Arxiv jamgarmalarida Namangan viloyati siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy tarakkiyotga oid sovet xukumati davrini yorituvchi hujjatlar jamlangan. Namangan viloyati shurolar xukumatining urnatilishi, milliy ozodlik xarakati, sotsialistik qurilishning olib borilishi va Namangan viloyati shahar, tuman ijroiya kumitalari jamgarmalarida turli hujjatalar mujassamlashgan.

Uyezd yer-suv komissiyasi jamg'armasida qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligiga oid 1925-1926 yillardagi yer-suv islohotlariga oid, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishga, kooperativlar tarixiga oid hujjatlar to'plangan. Xalq ta'limi jamg'armasida, sog'liqni saqlash, madaniyat kasaba uyushmalari, xalqning moddiy ahvoliga oid, ko'p sonli oilalarning ahvoliga doir ma'lumotlar mavjud.

Arxivning suratli hujjatlari jamg'armasida yer-suv isloxotlari, sanoat va xalq xo'jaligi tarakkiyotini madaniy va ommaviy tarzda yoritilishiga oid hujjatlar mavjud.[18] Namangan viloyatida sho'rolar davrida arxiv ishining rivojini Namangan

---

[15] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. .Б.18

[16]Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. .Б.22

[17] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. – Б.57.

[18] O'sha joyda

viloyati Uychi tuman arxivi faoliyati misolida ko'rib chiqsak, Uychi tuman davlat arxivi dastavval arxiv filiali sifatida 1969 yilda tashkil topgan bo'lib, 1975 yilgacha Uychi, Uchqo'rg'on, Norin, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlariga xizmat qilgan.

1975 yilda Uchqo'rg'on filiali tashkil etilishi munosabati bilan Uchqo'rgon va Norin rayonlariga tegishli bo'lgan 17.000 ta hujjatni kaytarib berilib, Uychi, Yangiqo'rgon va Chortoq rayonlariga xizmat ko'rsata boshlagan.

Arxiv tashkil topgan paytdan boshlab g'ayratlik A. Axmadjonov direktorlik qila boshladi. 1969-1974 yillar davomida Ne'matov Mahmudjon, Qambarov Tursunboy, Qayumov Jo'raxon, Abduraxmanov Abduvaxob kabi xodimlar filial inspektori vazifasida, Elyura Zavlunova, Kommuna Siddikova, Dyuda Rustamova, Ozoda G'aniyeva, Ibodat Muxiddinova arxivshunos - sekretar bo'lib ishlaganlar[19].

1973-1985 yillar davomida esa 1978-1985 yillar dazomida esa I kategoriyali arxivchi, Akbarali Yuldashev inspektorlik, Karima Adhamova,Mukarram Qodirova, Rohila Maqsudova, Yodgor Asrorov, Isroil Ortiqov, Ozoda Muradova, Aziza Mamajonova kabilar fond saqlovchi, Tursunboy Yuldoshev, Adashali Shokirov, Zayniddin Dedaxanov, 2-kategoriyali arxivchi Osiyo G'anieva, Rahima Ochildyeva esa maishnistkalik vazifalarida ishlaganlar. Abduvaxob Abduraxmanov direktorlik davrida tashabbuskorlik namunasini ko'rsatadi. Viloyat, noxiya partiya, sovet tashkilotlari, Viloyat ijroiya qo'mitasi Arxiv bo'limining rahbarlari yordamida viloyatda birinchilar qatori Uychi filiali uchun bir qavatli, 9 xonali zamonaviy arxiv binosi qurildi, 138-qurilish remont uchastkasi xodimlari filial ob'ektida qisqa vaqt ichida 21,2 mshg so'mlik qurilish-montaj ishlarini boshladilar. Filial binosi qurilishi 1976 yil iyulida boshlanib, 1977 yil dekabrida nihoyasiga yetkaziladi. Shunday qilib filialning moddiy-material bazasi ham yangidan barpo etiladi. Bunda A. Abduraxmonovning beqiyos xizmatlari bor.

[19] Namangan viloyati Uychi tuman davlat arxivi ma'lumotnomasidan.B.1

1985 yilnikg 31 iyulidan boshlab filialga Akbarali Yuldashev direktorlik qila boshdadi, pensiyaga chiqqanligi uchun 1989 yil 12 maydan boshlab filial direktorligi vazifasidan ozod etiladi[20].

1989 yil 13 iyun' kunidan boshlab esa filialga nohiya ro'znomasining sobiq muxarriri Abdulla Xalilov direktor etib tayinlandi.Bu davrga kelib Isroilxon Xoshimov bosh inspektor,Roxila Otaxanova fond saqlovchi, Zayniddin Dedaxanov xo'jalik gruppasi boshlig'i bo'ldi.

Filiyal hujjatlari yildan yilga ortib bormokda. Agar 1976 yil 1 yanvar holatiga 20. 858 ta hujjat bo'lgan bo'lsa bu miqdor 1991 yil I yanvar holatiga 38 mingtadan ortib ketdi. Shuningdek filialda Sotsialistik Mexnat Qaxramonlari Asadulla Baxramov,Sharofat Dadaboeva (paxtakoyu), fuqarolar va Ulug' Vatan urushi qatnashchisi I. P. Popov, veterenar A. S. Totskiy, Roxatxon Kodirova, birinchi maorifchilardan Yaminjon Dadaxonov kabilarning shaxsiy hujjatlari ham saqlanmoqda.[21]

Uychi Tuman Davlat Arxivida 126 dona jamlanma (fond) mavjud. Tumanda ushbu jamlanmalarni to'ldirib boruvchi 50 dona jamlash manbaa, ya'ni Davlat Arxivi nazoratida bo'lgan tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Xar bir tashkilotning Idoraviy arxivi bo'lishi lozim. Idoraviy arxivga aloxida jixozlangan xona, hamda buyruq asosida bir nafar ma'sul xodim ajratiladi va tashkilot xodimlaridan iborat doimiy xarakatdagi ekspert komissiyasi tuziladi. Tashkilot faoliyati davomida shakllangan hujjatlar, amaldagi qonun asosida o'tkaziladigan rejali tekshiruvlardan o'tgandan so'ng (3 yildan ortiq bo'lmagan muddatda) idoraviy arxivga topshiriladi. Idoraviy arxiv ekspert komissiyasi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni saqlov muddatlari bo'yicha saralanadi, ya'ni doimiy saqlov, shaxsiy tarkibga oid, uzoq muddatli va saqlov muddati o'tgan hujjatlar ajratib olinadi. Ajratib olingan hujjatlarga guruxlari bo'yicha ro'yxat tuziladi, ekspert komissiyasi azolari va tashkilot raxbari tomonidan tasdiqlanadi.

[20] Namangan viloyati Uychi tuman davlat arxivi ma'lumotnomasidan.B.2
[21] O'sha joyda

Doimiy saqlov va shaxsiy tarkibga oid hujjatlar ro‘yxati xududiy ETK (ekspert tekshiruv komissiyasi) tasdig‘idan o‘tgandan so‘ng amaliy kuchga kiradi. Saqlov muddati o‘tgan hujjatlarni ro‘yxatini tuzish va yo‘q qilishga ajratish xududiy davlat arxiv idoralari bilan kelishilgan xolda amalga oshiriladi. Doimiy saqlov, ya'ni milliy arxiv fondi (MAF) tarkibiga kiruvchi hujjatlar idoraviy arxivda besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatda saqlanadi va kelgusida xududiy davlat arxiviga topshiriladi. Shaxsiy tarkibga va uzoq muddatli saqlovga oid hujjatlar shartnoma asosida xududiy davlat arxiv idoralarida saqlanishi mumkin. Idoraviy arxivni to‘g‘ri tashkil etish, davlat arxivi jamg‘armalarini to‘ldirishda muxim o‘rin kasb etadi, chunki hujjatlarni birinchi saqlovga olish va saqlov muddatlarini belgilash jarayoni aynan idoraviy arxivlarda amalga oshiriladi. Idoraviy arxiv nafaqat davlat arxivining jamlash manbba tashkilotlarida, balki barcha yuridik maqomga ega sub'ektlarda tashkil etilishi lozim, chunki ularning barchasida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy tarkibga oid hujjatlar shakllanadi[22].

Andijon viloyat Davlat arxivi esa NKVD qoshida 1941-yili Andijon viloyatini tashkil topishi munosabati bilan UzSSR Andijon viloyat Orgkomitetining 1941-yil 9-apreldagi №38-sonli qaroriga asosan 7,2 ming so‘m sarflariga va shundan 3 ming so‘mi esa ish haqlari uchun ajratilgan mablag‘lar evaziga o‘z faoliyatini boshlagan.

Bu davrda Andijon viloyat Davlat arxivi 1909-yilda qurilgan musulmonlar masjidida joylashgan edi. Arxivga 3 dona hona ajratilgan bo‘lib, honalarning ma'lum bir qismi g‘ishtli pol bo‘lib, qolgan qismi tuproqli yerdan iborat edi.

Andijon viloyat Davlat arxivining 1941-yil xolatiga 8 nafar xodim 15 ta jamg‘armada 2769 dona saqlov birligidagi hujjatlarni saqlash bilan mashg‘ul edilar.1942-yilga kelib 26 ta jamg‘armada hujjatlar soni 14645 dona saqlov birligiga yetgan.

1945-yil 1-yanvar xolatiga Andijon viloyat Davlat arxivi xaqidagi tayyorlangan ma'lumotlar o‘rganib chiqilganda saqlovhonalar maydoni 11424 kv.m. bo‘lib,

[22] Namangan viloyati Uychi tuman davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B3

hujjathonalarning bandlik holati 75% ni tashkil qilar 28 dona jamg‘armada 17899 dona saqlov birligidagi hujjatlar saqlovini 8 nafar xodim bular, rahbar, ilmiy xodim, arxivning texnik xodimi va 5 nafar xo‘jalik gurixi xodimlari amalga oshirar edi. 1946-yilga kelib Arxiv binosi UMVD tomonidan ta'mirdan chiqarildi. 1947-yilda jamg‘armalar soni 44 ta hujjatlar saqlov birligi soni 18319 donani tashkil etgan. Andijon viloyat Davlat arxivi 1965-yilda Andijon ijroiya qo‘mitasining №211/11- sonli qaroriga asosan Andijon ijroiya qo‘mitasining arxiv bo‘limi deb yuritila boshladi.

1991-yili oktyabr oyi qayta qurish davriga to‘g‘ri kelib, Andijon viloyat Davlat arxivi avvalgi park arxiv binosiga ko‘chirildi[23]. 1970-yillarda davlat arxivlari nazorat qilayotgan tashkilotlarning idoraviy arxivlari va ish yuritish xizmati birmuncha yaxshilandi. 1972-1980 yillarda bevosita arxiv tashkilotlarining ishtirokida respublikada 49 ta shaxsiy tarkib bo’yicha xo’jalik hisobidagi arxivlar tashkil qilindi va ularga 850 mingga yaqin yig’majildlar qabul qilindi. Respublikada birinchi bunday arxiv Andijon viloyatida tashkil etilgan. 1972 yil 13 iyunda Andijon viloyati ijroiya qo’mitasi «Viloyat davlat arxivining Qo’rg’ontepa filiali qoshida shaxsiy tarkib bo’yicha hujjatlarning rayonlararo birlashgan arxivini tashkil qilish to’g’risida» qaror qabul qildi. Unga asosan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, kolxozlar, sovxozlarning shaxsiy tarkib bo’yicha hujjatlari saqlanishini ta`minlash, hisobga olish, ularni jamlash va fuqarolarga biografik ma`lumotnomalar berish maqsadida shaxsiy tarkib bo’yicha xo’jalik hisobidagi Qo’rg’ontepa tumanlararo arxivi tashkil qilingan. Bu arxiv Qo’rg’ontepa, Xo’jaobod tumanlari va Sovetobod shahri tashkilotlari, kolxoz va sovxozlari mablag’i hisobidan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va foydalanish uchun tuzilgan. Har bir tashkilot va xo’jalik shaxsiy tarkib bo’yicha hujjatlarni markazlashtirib saqlagan xo’jalik hisobidagi arxivga mablag’ o’tkazib turar, ana shu mablag’ hisobidan arxiv ishchi va xizmatchilariga ish haqi berar edi.

[23] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B.1

Ijroko’m qarori bilan har bir yig’majild uchun bir yilga 65 tiyin miqdorda haq to’lash belgilangan edi.

Qo’rg’ontepa arxivining tajribasi shaxsiy tarkib hujjatlarining saqlash va foydalanishni samarali va foydali shakli tuman, shahar idoralararo arxivlarda bunday hujjatlarni markazlashtirib saqlash ekanligini isbotladi, O’zbekiston Respublikasi Ministrlar Sovetining 1973 yil 16 fevraldagi «Respublikada arxiv ishini ahvoli va yanada yaxshilash tadbirlari to’g’risida»gi qarori asosida ijrokomlar qoshida shaxsiy tarkib hujjatlarining idoralararo xo’jalik hisobidagi arxivlarni tashkil qilish keng avj oldi.

Bu arxivlar vazifasi ularga tashkilotlar shartnoma asosida topshirgan shaxsiy tarkib hujjatlarini markazlashtirib saqlash va fuqarolarga ular asosida ma`lumotnomalar berish edi. Bunday arxivlar respublikaning ko’pchilik viloyatlarida tashkil qilindi. Bu arxivlar shaxsiy tarkib hujjatlarini saqlashni ta`minlashda va tuman, shaharlarda arxiv ishini umumiy ahvolini yaxshilashda, fuqarolarga arxiv ma`lumotnomalari berishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi[24].

Davlat arxivlari tashkilotlarda ish yuritishni takomillashtirishga qaratilgan amaliy natija beradigan tadbirlar o’tkazdi. Tashkilotda ish yuritishni tashkil qilinganligi darajasi to’g’risida fikr yurgizishga asos bo’ladigan asosiy ko’rsatkichlar bular ish yuritish bo’yicha yo’riqnomani, yig’majildlar nomenklaturasini borligi hisoblanadi[25].

[24]Tursunov B. O’zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi// O’quv –uslubiy majmua. Namangan 2013.-B.32-33
[25] O’sha joyda.

II-BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA FARGONA VODIYSIDA ARXIV ISHI

2.1. Andijon viloyatida arxiv ishi

Mustaqillik yillarida Andijon viloyat Davlat arxivida keng ko‘lamli qurilish ishlari amalga oshirldi. Bulardan eng salmoqlisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**O‘zbekiston Respublikasida Arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi (2008 yil 26-avgust) 194-sonli qarori ijrosi yuzasidan “O‘zarxiv” agenligining 2011 yil investitsiya dasturi doirasida 830 mln. so‘m pul mablag‘i ajratilib, Andijon shahar xokimining 2010 yil 17-noyabrdagi 649-sonli qarori bilan Andijon shahar Bobur shoh ko‘chasi 41-manzildagi eski saqlovxona binosi yonidagi sobiq iqtisodiyot instituti hududidan 720 kv.m yer maydoni biriktirib berilib yangi 3 qavatli va yer to‘lasiga ega saqlovxona binosi qurib bitkazilib 2012 yil aprel oyidan foydalanishga topshirilgan.[26]

Andijon viloyat Davlat arxivida 2015-yil 1-yanvar xolatiga 1 dan 702 gacha fond mavjud bo‘lib, **(xarakatdagi)** 485 ta **(fondda hujjatlar saqlanmoqda)** fondda **(MAF saqlovdagi yig‘majild soni)** 155390 saqlov birligida yig‘majildlar saqlanmoqda.

485 dona xarakatdagi fondlardan 24 shahsiy fonnda 404 saqlov birligida shahsiy yig‘majildlar saqlanmoqda**. (peredanniy)** 119 ta fonddan yig‘majildlar boshqa filiallarga o‘tkazilgan, fondlardan 64 tasi bo‘sh, 34 ta fondda hujjatlar **birlashtirilgan.**

01.01.2015 yil xolatiga **3 dona** mavjud fondga va **1 dona** yangi fondga **3000** (uch ming) saqlov birligida yig‘majildlar qo‘shildi.

Andijon viloyat Davlat arxivida 141 ta fondda 27642 saqlov birligida shaxsiy tarkibga oid yig‘majildlar saqlanmoqda.[27]

---

[26] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B. 2.
[27] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B.3.

Ushbu barcha fondlar haqidagi ma'lumotlar elektron bazasi 100% tayyor holatga keltirilgan.

25628 saqlov birligida vaqtincha saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlar saqlanmoqda.

So‘ngi yillarda Andijon viloyat Davlat arxivida 6 dona saqlovxona mavjud bo‘lib, jami 1848 m2 ni tashkil etadi.

Andijon viloyat Davlat arxivida direktor, jamlash manbaalari bilan ishlashda bosh arxivchi va yetakchi mutaxassis, hujjatlardan foydalanish va ma'lumotlar tayyorlash toifali arxivchi, hujjatlarni saqlovini amalga oshirishda fond saqlovchilar hujjatlarni ilmiy texnik jarayonda tamirlovchi va muqovalovchi hamda xo‘jalik guruhi arxuvchilari, hujjatlarni elektron bazasini yaratishda mikrofilm operatori va nusxa ko‘chiruvchi xodim va xodimlar, jami 26 nafar xodim faoliyat ko‘rsatadi.

Andijon viloyat Davlat arxivi “O‘zbekiston Respublikasi arxiv ishi to‘g‘risida”gi (2010 yil 15-iyun) qonunda nazarda tutilgan **arxiv hujjatlarini jamlash, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni amalga oshirish** [28]to‘g‘risidagi asosiy arxiv yo‘nalishlariga tayanib faoliyat olib boradi.

Andijon viloyat Davlat arxivida asosiy yo‘nalishlardan birinchisi bo‘lgan O‘zbekiton Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini **jamlash** bo‘yicha Hukumatimiz tamonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlarni ijrosini ta'minlagan holda quyidagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Andijon viloyat Davlat arxivida asosiy yo‘nalishlardan birinchisi bo‘lgan O‘zbekiton Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini **jamlash** bo‘yicha Hukumatimiz tamonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlarni ijrosini ta'minlagan holda quyidagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Viloyat Davlat arxivi xududidagi Milliy arxiv fondini jamlashda asosiy jamlash manbaai bo‘lgan 150 ta 1-ro‘yxatga, 118 ta extimoliy ro‘yxatga kiritilgan boshqaruv organlari, muassasa, korhona va tashkilotlarda O‘zbekiston

[28] “Ўзбекистон Республикаси архив иши тўғрисида”ги конуни. 2010. 3-модда

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Arxiv ishini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi (2004 yil 3-fevral) 49-sonli qarori 2-bandini “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi hududiy idorasi sifatida ijrosini ta'minlash maqsadida arxiv ishi va ish yuritishni hukumatimiz tomonidan belgilangan me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida tashkillashtirish, Milliy arxiv fondi hujjatlarini to‘g‘ri saqlanishini ta'minlash va foydalanishga berishni tashkillashtirish ularning hisobini yuritish borasida reja asosida metodik ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2008 yil 26-avgust) karori ijrosi yuzasidan idoraviy saqlash bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlashga va ularning saqlanishini ta'minlashga, tashkilotlarining har yilgi takliflariga muvofiq xodimlar malakasini oshirish tadbirlariga zarur mablag‘larni qo‘yishlari kerakligi to‘g‘risida har yil boshida targ‘ibot tashviqot ishlarini amalga oshirib boradi.[29]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish** to‘g‘risida”gi (2012 yil 5-apreldagi) 101-sonli qarori 2-ilovasi **O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining Davlat katalogi to‘g‘risida NIZOM** 7-bandini ijrosini ta'minlash maqsadida MAF tarkibiga kiritilgan, idoraviy arxivlarda vaqtincha saqlovda bo‘lgan arxiv fondlari va ularning jamlash manba (yig‘majildlar)lari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni kalendar yilning 1 yanvar holati bo‘yicha 5 yanvardan kechikmay taqdim etishlarini ta'minlagan holda hisobotlar olinib Arxiv ishi hududiy boshqarmasiga taqdim qilinib boriladi.

Bundan tashqari **12 032 000** so‘m sarf qilinib **8** dona kompyuter qurilmasi (komplekt) 2 880 000 so‘mga videoprektor sotib olinib hududdagi korhona va


[29] “Ўзбекистон Республикасида Архив ишини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги (2008 йил 26-август) 194-сонли қарори 6-банди

tashkilotlarning idoraviy arxivchilarini malakasini oshirish maqsadida o‘quv kurslari tashkil qilingan. [30]

Andijon viloyat Davlat arxivida asosiy yo‘nalishlardan yana biri bo‘lgan O‘zbekiton Respublikasi Milliy arxiv fondi hujjatlarini **hisobga olish** bo‘yicha Hukumatimiz tamonidan chiqarilgan me'yoriy hujjatlarni ijrosini ta'minlagan holda quyidagi ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Viloyat Davlat arxivida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “**O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini takomillashtirish** to‘g‘risida”gi (2012 yil 5-apreldagi) 101-sonli qarorining Arxiv hujjatlarini jamlash, davlat hisobiga olish, saqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq ish tashkil qilinib, Arxiv hujjatlarining fondga mansubligini aniqlash ularni tegishli fond tashkil etuvchining arxiv fondiga kiritish, Shaxsiy kelib chiqish arxiv fondlarini hujjatlar bilan boyitgan holda arxiv hujjatlarini saqlov birliklari davriy chegaralari hisobi bo‘yicha tizimli fondlar tashkil qilgan holda hisobi yuritib boriladi.

Anijon viloyat Davlat arxivi binosi devorida aks ettirilgan xuquqiy me'yoriy hujjat



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

ПОСТАНОВЛЕНИЕ КАБИНЕТА МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

"5" АПРЕЛЬ 2012 ЙИЛ № 101

ТОШКЕНТ ШАҲАР

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА АРХИВ ИШИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА

"АРХИВ ИШИ ТЎҒРИСИДА"ГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНИ ТАЛАБЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МАҚСАДИДА ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Қуйидагилар:
Архив ҳужжатларини жамлаш, давлат ҳисобига олиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида Низом 1-иловага мувофиқ;
Ўзбекистон Республикаси Миллий архив фонди Давлат каталоги тўғрисида Низом 2-иловага мувофиқ;
Архивларни ташкил этиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш тартиби тўғрисида Низом 3-иловага мувофиқ;
Архивлар ва идоравий архивлар томонидан хизматлар кўрсатиш тартиби тўғрисида Низом 4-иловага мувофиқ;
Архивлар мутахассисларини Ўзбекистон Республикаси корхоналари, муассасалари ва ташкилотлари ҳужжатларини тартибга келтиришга компетентлиги юзасидан аттестациядан ўтказиш тартиби тўғрисида Низом 5- иловага мувофиқ;
Архив ҳужжатларини Ўзбекистон Республикасидан ташқарига олиб чиқиш ва архив ҳужжатларини Ўзбекистон Республикасига олиб кириш тартиби тўғрисида Низом 6-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Вазирликлар ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, шунингдек корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар архив ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси Миллий архив фонди таркибига киритилган ўз архив фондларининг ҳажми ва таркиби ҳақидаги маълумотларни белгиланган муддатларда ва шаклларда тегишли архивларга мунтазам равишда тақдим этилишини таъминласинлар.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қузуридаги "Ўзархив" агентлиги:
архив ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси Миллий архив фонди таркибига киритилган архив фондлари мулкдорлари учун ўз архив фондларининг ҳажми ва таркиби ҳақидаги маълумотларни тақдим этиш, шунингдек ҳужжатларни архив сақловига топшириш босқичида ҳужжатларни тўғри тартибга келтиришни ташкил этиш бўйича услубий қўлланмаларни бир ой муддатда ишлаб чиқсин;
архив ҳужжатлари Ўзбекистон Республикаси Миллий архив фондига киритилган архив фондларининг ҳажми ва таркиби бўйича маълумотлар базаси шакллантирилишини ва кейинчалик уларнинг тизимли равишда ҳисобга олинишини уч ой муддатда таъминласин.

4. Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикасида маданий бойликларнинг олиб чиқилиши ва олиб кирилиши масалаларини тартибга солиш тўғрисида" 1999 йил 23 мартдаги 131-сон қарорига (Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 1999 й., 3-сон, 15-модда) 7-иловага мувофиқ ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсин.

5. Давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳамда бошқа ташкилотлар бир ой муддатда ўз идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини ушбу қарорга мувофиқлаштирсинлар.

6. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари А.Н.Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири Ш. Мирзиёев

[30] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B4

Ushbu qarorning 2-ilovasiga **O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondining Davlat katalogi to‘g‘risida NIZOMga** muvofiq Milliy arxiv fondiga kiruvchi Davlat saqlovida bo‘lgan fondlar va ulardagi yig‘majldlar saqlov birligi soni to‘g‘risida Andijon viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasiga ma'lumotlar taqdim qilib boriladi.

Milliy arxiv fondiga kiruvchi hujjatlarni **saqlovini ta'minlash** maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2008 yil 26-avgust) 194-sonli qarorini ijrosini ta'minlagan holda 2014-2015 yilning o‘zida **47 001 920 so‘m** mablag‘ sarflanib, 112 dona metall stellajlar sotib olindi[31].

Arxiv ishidagi mutahassis hodimlar “O‘zarxiv” agenligida tashkil etilgan o‘quv kurslariga malaka oshirishga, Respublikamizning boshqa arxiv idoralariga tajriba almashishga yuborish reja asosida tashkil etilgan.

“O’zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish tugrisida”gi qonuni va axborot tizimlari va resurslari xavfsizligi talablarini ta'minlash hamda “Axborot xavfsizligi siyosati”ni joriy etish mavzusida 24 soatlik o’quv kursiga yuborilgan.

Ushbu qarorni dasturi doirasida xujatlarni saqlovini zamonaviy tehnologiyalardan foydalangan holda taminlash maqsadida 19 750 000 so‘m mablag‘ yo‘naltirgan holda hujjatlarni sug‘urta nusxasini tayyorlovchi qurilma sotib olingan bo‘lib, hozirda Davlat saqlovida bo‘lgan Milliy arxiv fondiga tegishli hujjatlarning sug‘urti nusxalarini olish va ularni elektron holda tizimlashtirib saqlash ishlari jadal tarzda olib borilmoqda. Bu bizga Milliy arxiv fondi hujjatlarini uzoq asrlar davomida saqlashni ta'minlash va faoliyatda elektron qidiruv ishlarini tashkil etishda yaqindan yordam berishi shubhasiz[32].

Andijon viloyat Davlat arxivida hujjatlardan **foydalanish**da ilmiy tadqiqot ishlari uchun o‘quv zali tashkil qilingan bo‘lib, tadqiqotchilar zarur hujjatlarni

[31] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B4
[32] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B5

taqdim qilib arxiv hujjatlarga buyurtma bergan holda ilmiy ma'lumotlar to‘plashlari mumkun.

Oliy va o‘rta-mahsus ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot idoralari bilan hamkorlik uzuliksiz tarzda olib boriladi ular qiziqishlari mumkun bo‘lgan ma'lumotlar tayyorlanib Viloyat Davlat arxivi hodimlari tamonidan tashabbusli axborotlar taqdim qilib kelinmoqda.

Milliy arxiv fondi hujjatlaridan foydalangan holda mavzuli va ijtimoiy huquqiy so‘rovlarni tezkor va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon viloyat davlat arxivining **t.teshaboyev@exat.uz** elektron manzili orqali so‘rovlar qabul qilinib ijrosi ta'minlanmoqda.

Bundan tashqari jismoniy va yuridik shahslarning so‘rovlarini bajarishda qulaylik yaratish maqsadida 16 490 000 so‘m “infokiosk” va uning dasturi uchun mablag‘ jalb qilingan bo‘lib hozirda hududda yashovchi aholi o‘zlarining ish stajlari va oylik maoshlari to‘g‘risida ma'lumotlarni Davlat arxivida ishga tushirilgan “infokiosk” orqali ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda olishlari mumkin [33].

Andijon viloyat davlat arxivi faoliyati davomida hukumatimiz tamonidan chiqarilgan qonun va qonun osti me'yoriy hujjatlari bilan tanishib boriladi hamda ijro intizomi masalasi davlat arxivi direksiya yig‘ilishlarida muntazam muhokama qilib kelinadi.

Andijon viloyat davlat arxivida Uzbekistan Respublikasi Konuni, Prezident farmonlari, karorlari hamda Vazirlar Maxkamasining karorlari va farmoyishlari asosida axborot havsizligi yo‘nalishida ish tashkil qilingan. Ijrosi buyicha davlat arxivida tegishli hujjatlar ishlab chikilgan.

Andijon viloyat davlat arxivida axborot xavfsizligi chora-tadbirlar rejasi ishlab chikilgan va 2015 yil 28 avgustda tasdiklangan. Ushbu chora-tadbirlar rejasining banlari buyicha amalda ishlar olib borilgan, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Axborot xavfsizligi talablari asosida qo’yidagi ishlar amalga

[33] Andijon Viloyati davlat arxivi ma’lumotnomasidan.-B.6.

oshirilgan. Axborot xavfsizligi buyicha buyruk asosida unga masul shaxs tayinlangan va 2015 yil sentyabr oyida Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi “Uzarxiv” agentligida “Uzbekiston Respublikasi Axborotlashtirish tugrisida”gi Konuni va axborot tizimlari va resurslari xavfsizligi talablarini ta'minlash hamda “Axborot xavfsizligi siyosati”ni joriy etish mavzusida 24 soatlik o’quv kursiga yuborilgan.

Viloyat Davlat arxivida mavjud barcha AKT vositalari tegishili tartibda inventarizatsiyadan o‘tkazilgan.

Mavjud kompyuterlarni Ichki lokal tarmoq Ethernet texnologiyasiga asosan yulduzsimon topologiya asosida qurilgan, tarmoqqa ulangan kompыoterlar soni 8 tani tashkil qiladi. kompyuterlar tizimli bloklari muxrlangan, barcha kompyuterlarga antivirus dasturi o‘rnatilgan. Barcha kompyuterlarga ximoya parollari o‘rnatilgan bo‘lib, foydalanuvchilar xuquqlari cheklangan. Kompyuterlarda USB, DVD-R W portlariga cheklovlar quyilib, kompyuterlarda xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari, xizmat vazifasiga alokador bo‘lmagan ko‘ngilochar fayllar saqlanishiga chek qo‘yildi. Internet tarmog‘iga ulanish, Internet xizmatlaridan foydalanish buyicha AK O‘zbektelekom filiali “BRM” va Andijon viloyat arxiv ishi boshqarmasi o‘rtasida 2015 yilning 20 aprelda №3504/INET-374 rakamli shartnomaga asosan amalga oshiriladi, Internet tarmog‘idan foydalanish TAS-IX tarmogi doirasida cheklangan, Internet tarmog‘i trafigi nazorat qilinadi. Xodimlar funksional vazifalarida bajarishda “ye-xat” tizimidan tizim tashkilotlari bilan elektron hujjat aylanish maqsadida foydalaniladi. Tizimga kirish elektron rakamli imzo bilan amalga oshiriladi.

Ma'lumotlar almashinuvining xavfsizligini ta'minlash maksadida, “ye-xat” ximoyalangan pochta xizmatidan foydalaniladi.

Andijon viloyat davlat arxivi binosida yongin xavfsizligi signalizatsiya vositalari bilan jixozlangan. Xonalarda birlamchi ut uchirish vositalari mavjud.

Boshkarma va Andijon viloyat davlat arxivi binolari yonma-yon joylashgan bulib, binolar uchun 1 ta yongin xavfsizligi kalkoni (pojarnыy щit) mavjud.[34]

Andijon viloyat davlat arxivi binosida jami 6 ta videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan bo‘lib, kuzatuv monitori mavjud va saqlash muddatlari tartibga solingan.

Andijon viloyat Davlat arxivining 2015 yil 9 oylik yakunlariga ko‘ra ko‘rsatilgan hizmatlar bo‘yicha tahliliy ma'lumoti

Pullik xizmat ko‘rsatish:

Davlat arxiviga axoliga va tashkilotlarga ko‘rsatilgan pullik xizmatdan 2015 yil 9 oyligida 104 000 000 so‘m miqdorda mablag‘ kelib tushdi.

Shundan: arxiv ma'lumotlari berishdan tushgan daromad 26 219 000 so‘mni, hujjatlarni tartibga keltirish va ilmiy texnikoviy ishlov berishdan tushgan daromad 77 781 000 so‘mni tashkil etdi.

Ushbu 9 oylik uchun Arxiv binosini joriy ta'mirlash uchun rejaga 15 000 000 so‘m belgilangan edi moliya bo‘limi tomonidan 2015 yil uchun xarajatlar smetasiga ta'mirlash uchun mablag‘ qo‘yilmadi.

9 oylik uchun 60 dona temir stellaj sotib olish uchun 30 000 000 so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, 24 000 000 so‘mga 40 dona stellaj sotib olindi.

Ishlab topilgan mablag‘lardan 10 200 000 so‘m sarflanib, 6 dona qurilma 5 dona kompiyuter jamlanmasi, 1 dona video proektor sotib olindi

Bundan tashqari 1 dona info kiyoska sotib olindi.[35]

So‘rovlarning ijrosi: 2015 yil 9 oyligida mavzuli so‘rovlar rejasi 60 ta, amalda 268 ta barchasi ijobiy, ijtimoiy xuquqiy so‘rovlar rejada 900 ta, amalda 3438 taga bajarildi, shundan 3015 tasi ijobiy, salbiy 376 ta, 47 tasi tegishliligi yuzasidan boshqa tashkilotga yuborilgan. Jami **3706** dona mavzuli hamda ijtimoiy-xuquqiy so‘rovlar bajarilib ijrosi ta'minlangan.

---

[34] Andijon Viloyati davlat arxivistatistik ma’lumotlaridan.B.7.

[35] Andijon viloyat Davlat arxivining 2015 yil 9 oylik yakunlariga ko‘ra ko‘rsatilgan hizmatlar bo‘yicha tahliliy ma'lumoti.-B.1.

2015 yil 9 oyligida bajarilgan mavzuli hamda ijtimoiy-xuquqiy so‘rovlarining

1149 -tasiga 1-3 kungacha

1920 tasiga 10 kungacha

637 tasiga 30 kungacha javob berildi.

Davlat arxivlariga 3207 nafar fuqaro shaxsan o‘zi murojaat qildi.

Korxona va tashkilotlardan **499 dona**[36]**.**

2.2. Namangan viloyatidagi arxivlar faoliyati

Mustaqillik sharofati bilan Viloyatda arxiv ishi bo’yicha juda katta ishlar olib borildi. Bunga Chust tumanidagi davlat arxivi faoliyatini misol kilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, Chust davlat arxivi 4 ta tuman, 2 ta shahar, 233 ta tashkilot, korxona muassasalarga xizmat ko‘rsatadi. Shahar va tuman xokimliklari filial ishiga yaqindan amaliy yordam beradilar va uni ko’llab quvvatlaydilar. Xokimlar tomonidan filial hududidagi muassasa, korxona, tashkilot, jamoat va fermer xo’jaliklari, qo’shma va kichik korxonalarga hujjatlarni arxivga topshirish tartibiga saqlanish haqida shartnomalar tuzish bo'yicha xat chiqariladi, qarorlar qabul qilinadi. Topshirilgan hujjatlarning saqlanishi yuzasidan kuriklar utkazishmuassasalar arxivini tartibga keltirish, hujjatlani davlat arxiviga topshirish tartibi bo'yicha chiqarilgan qarorlar ana shular jumlasidandir.

Chust shahar xokimi arxiviga katta amaliy yordam ko'rsatib kelmoqda. Bevosita xokimlik tomonidan ko’rilib foydalanishga topshirilgan yangi bino metodik xonaga aylantirildi. Yaqinda shahar hokimligi qarori bilan ajratilgan qo’shimcha xona ham to’la ta`mirdan chiqarilib, jihozlandi. Binoga hujjatlarni saqlash uchun zarur vositalar o’rnatildi[37].

---

[36] Andijon viloyat Davlat arxivining 2015 yil 9 oylik yakunlariga ko‘ra ko‘rsatilgan hizmatlar bo‘yicha tahliliy ma'lumoti.-B.2.

[37] Namangan Viloyati Chust tuman davlat arxivi ma’lumonomasidan.-B.1.

Filialda xodimlarni ishlashi uchun sharoit yaratilishi, muassasa arxivi bilan shug'ullanuvchi mas`ul kishilar bilan yaqindan hamkorlik qilinishi, ularga arxivdagi hujjatlarni saqlash holatiga doir maslahatlar berib borilishi yaxshi samara beryapti. Filial xodimlari hujjatlarni jamlashda ularning asosiy manbasiga e`tiborni qaratadilar. O'tgan yili davlat xisobiga olingan fondlar tarmoklar bo'yicha quyidagicha bo'ladi:

1. Pullik xizmat xisobida qabul qilingan papkalar – 1028 ta.
2. Filial hujjatlari – 19 ta
3. Ijara pudrati brigadasi tomonidan qabul kilinib tayyorlangan papkalar – 1348 ta; jami: 2393 ta

Bundan tashkari 83 ta fotohujjatlar qabul qilindi va topshirildi. Tashkilotda saqlash muddati utib ketgan papkalardan 1556 ta qabul kilinib, doimiy saqlashga koldirilgan[38].

Filialda keyingi yillarda hujjatlarni davlat xisobiga olish, doimiy saqlashga qoldirish, qiymatiga qarab ekspertiza kilish, jamlashda olib borilayotgan ishlarning sifati yaxshilanayotgani, bu erda mehnat qilayotgan axil jamoaning mexnatsevariligi, uz kasblarini sevishlaridan dalolat beradi. Viloyat davlat arxivining Chust filialida 444 ta muassasa, korxona, tashkilot, xo'jalik, qo'shma va kichik korxonalarning hujjatlari saqlanadi. Bu hujjatlar tumanlar va shaharlar hokimliklari, ularning bo'lim va boshqarmalari, yirik korxona va birlashmalar. Chust, Gulbog, Pop paxta tozalash zavodlari, xissadorlik jamiyatlari, suv xo'jaligiga qarashli hamda 1 – va 2 – kishlok qurilish Vazirligiga qarashli xo'jalik xisobidagi kuchma jamlamalar, Chust «Pichok» zavodi va boshkalarga tegishli hujjatlar. Filial ma`muriyati, uning xodimlari bu tashkilot korxona va xo'jaliklar boshliqlari bilan doimo yaqindan munosabatda bo'lishlari ishning muvaffaqiyatining ta`minlab keladi. Ayniqsa rahbar xodimlar. Kadrlar bo'limi muxandislari bilan o'tkazib turiladigan semenarlar. Yakka tartibda bevosita joylarda o'tkaziladigan suxbatlar hujjatlarni qabul qilishi, jamlash, ularni davlat

[38] Namangan Viloyati Chust tuman davlat arxivi ma'lumonomasidan.-B.2.

saqloviga olishdagi ishlarini namunali tashkil etilishiga ijobiy ta`sir ko'rsatmoqda[39].

O'zbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan sung qisqa davrda filial xodimlari katta xajmdagi ishlarni bajardilar.

Muassasalar arxivi ishi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh arxivining buyrugi asosida quyidagilar amlga oshirildi:

- barcha tuman, shaharlar xokimliklar xodimlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining «Ish yuritish bo'yicha yuriknomasini tadbik etish to'g'risida» mavzusida seminar yig'ilishlar utkazildi.
- Tuman va shahar xokimliklari imzosi bilan Chust arxivi nazoratidagi barcha muassasa, korxona tashkilot va xo'jaliklarga quyidagi ishlarni bajarish topshirildi.

1. Arxiv hujjatlari uchun maxsus bino ajratish va ularni jixozlash;
2. Arxiv hujjatlarini saqlashni mas`ul shaxsga topshirish;
3. Arxia xujatlarini ekspertiza kilish uchun gurux tuzish;
4. 1991 yilgi hujjatlarni Chust arxiviga topshirilish;

Yil rejasiga asosan xisoblash davrida, ya`ni 1996 yilda muassasalardagi arxivlar xolati bo'yicha 41 ta tematik va 6 ta majmuali tekshirishlar o'tkazildi. Muassasa arxivlari ishidagi kamchiliklarni yo'qolishda amaliy yordam ko'rsatildi[40].

Mexnatkashlarni vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, mustakil O'zbekistonning kelajagiga ishonch xis – tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda filialda saqlanayotgan xalq xujaligi va ijtimoiy madaniy xayotga doir hujjatlardan keng foydalanish doimo jamoaning diqqat markazida tkradi.

Oldinlari muassasa, korxona, tashkilot, xo'jalik korxonalarning tashkil topgan sanalari haqida qisqacha xronologik tarzda axborot tayyorlanardi. Keyingi paytlarda arxivchilar tarixiy sanalarga bag'ishlangan axborotlarda hujjatlardan

[39] G'ofurov N.A. Arxivshunoslik//Ma'ruzalar matni. Namangan.2008.- B.15.
[40] O'sh joyda

kengroq foydalanish maqsadida qo’shimcha ma`lumotlar, fotosuratlar, hujjatlardan nusxa ko’chirish bilan axborotni to’ldirishni yo'lga qo’yildi.

Hujjatlarni va arxiv ishini ommalashtirishda jamoatchilik bilan o’tkazilayotgan uchrashuvlarning ahamiyati katta bo'lyapti. Urush va mehnat faxriylari, madaniyat xodimlari, o’lkashunoslar, jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvlar ayniksa marokli bo'layotgani xarakterlidir. Bu uchrashuvlarda hokimliklar vakillari qatnashadilar va ular tomonidan tarixiy hujjatlar sharxlanadi. O'zbekistonning buguni va kelajagi haqida bu borada tuman.Shaharda olib borilayotgan ishlar, yurtboshimizning axolini ijtimoiy himoyalash va O'zbekistonning ravnaqi yo'lida sa`yi harakatlari haqida fikrlashiladi. Bunday ishlarni o’tkazilishi samarali bo'lmokda. Buni arxiv ishining tobora ommalashib borilayotganligidan uning o’quv zallari gavjum bo'layotganligidan bilsa bo'ladi. Filialning tumanlar va viloyat ro’znomalari bilan hamkorlikdagi faoliyati ham dikkatga sazovordir. Ro’znomalarda shahar va tumanlardagi sanoat korxonalari, qurilish tashkilotlari, xo’jaliklar mashxur kishilar, urush va mexnat faxriylari haqidagi xabar va maqolalar tez – tez kuzga tashlanib turadi. Filial tomonidan unitilmas sanalar bo'yicha tayyorlangan tematik reja asosida bevosita arxiv xodimlari ro’znomalar, radio va teleko'rsatuvlarda ishtirok etailar. Jamoatchilik asosida arxiv xodimlari tashabbusi bilan Chustda 1964 yilda tarix va o’lkashunoslik muzeyi tashkil qilindi. Chust tarixiga doir yozilmalar, xotiralar va boshka manbaalardan olingan materiallar davrlar, yillar bo'yicha sohalarga ajratildi. Birinchi bo'limga O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan 10 yil davomida olib borilagn arxeologik qazilma ishlari paytida topilgan eksponatlar «Chust bronza davrida» degan bo'limga qo’yildi. Keyinig bo'limdan Chustning shurolar davrigacha bo'lgan davri haqidagi eksponatlar urin oldi. Sungra Vatan urushi yillari haqidagi eksponatlar joylashtirildi. «Chust ellik yilda» bo'limidagi

eksponatlarda tuman va shaharda xalq xujaligini rivojlantirish, maorif, madaniyat soxalari. Birinchi O'zbekiston xalq shoiri Sufizoda haqida xikoya kilinadi.[41]

Filial ahlining hujjatlarini jamlash, saqlash va ularni almashtirishdagi ishlari ibratlidir.

Buni ularning mustakillik yillaridagi faoliyatidan ham yaqqol ko'rsa bo'ladi:

- muhim tarixiy kunlar taqvimi tayyorlanib tashkillash va muassasalarga yuborildi.
- «Chust xaqiqati» ro'znomasi va radio eshittirishi taxririyati bilan kelishilgan holda Buyuk g'alabaning 50 yilligiga tayyorgarlik yuzasidan tadbir reja tayyorlandi;
- Faxriylar kengashi bilan hamkorlikda yubileyni o'tkazilish komissisiyasi tuzildi;
- Vatan urushi qatnashchilari haqida hikoya qiluvchi uchta plaat tuzildi;
- Izlanish samarasi – aniqlangan fakt, Hujjatlar asosida Chust bog'ida ko'rgazma tayyorlandi.
- Arxiv hujjatlari asosida «Chust tarixi» kitobi tayyorlanib 5 ming nusxada chop etildi.

1995 yil 5 avgustda Chust shahar hokimligi tashabbusi bilan mamlakatimiz va uning tashqarisida yashab mexnat kilayotgan Chustning mashxur kishilari bilan uchrashuv tashkil qilindi. S'Hu munosabat bilan arxiv xodimlari «Chust faxri» va «Hech narsa hech kchon unitilmaydi» degan ko'rgazma tashkil etdilar. Chust bogida namoyish etilgan ushbu ko'gazma ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Bundan shu davrda 10ta har xil mavzuli so'rovlar bajarildi. 145 ta ijtimoiy va huquqiy toifadagi, 6 ta tashabbuslar axborotlar bajarildi. Hujjatlar asosida radioeshittirishlar tashkil etildi. Arxiv zallari bo'ylab uchta ekskursiya uyushtirildi[42].

[41] G'ofurov N.O. Arxivshunoslik//Ma'ruzalar matni. Namangan.2008.-B16-17
[42]Namangan Viloyati Chust tuman davlat arxivi ma'lumonomasidan.-B3

Filial xodimlarining uzok izlanishlari, Vatan urushi haqidagi hujjatlar saqlanayotgan arxivlar bilan yozishmalari asosida shu kungacha «Bedarak yo'qolganlar» ro'yxatida Nurpolvonov Maxmudjoning qabri aniqlandi. Ayniqsa «Onalar jasorati avlodlarga meros» ko'rgazmasi ko'pchilikda katta taasurot qoldirdi. Arxiv xodimlarining Chust tarix va o'lkani o'rganish muzeyi xodimlari bilan hamkorlikda tayyorlanib Chust bog'ida namoyish etilgan bu ko'rgazmada Chustlik jangchilarning urush frontlarida ko'rsatgan jasoratlari, Chust xalqining qariyalar, xotin – qizlar, bolalarning front ortidagi mehnat jasoratlariga ham katta o'rin berilgan.

Buyuk galabaning yarim asrlik bayrami arafasida arxiv ma`muriyatiga Vatan urushi va frontga yordam bilan bog'lik narsalar bo'yicha ko'plab so'rovlar tushdi. 1994 – 1995 yillar davomida arxiv xodimlari 500 ga yakin ana shunday so'rovlarga javob berdilar.

Bundan tashkari «1941–1945 Ulug Vatan Urushi yillaridagi shavkatli mexnatkashlari uchun» medali bilan taqdirlanishi munosabati bilan murojaat kilgan 357 kishi so'rovlariga konikarli javob oldilar. Albatta, uz – uzidan ma`lumki bunday katta hajmdagi ishlarni bajarish filial ahlidan katta matonat bilan ishlashni talab qiladi[43].

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiy islohotlar jarayonida arxiv tashkilotlarida xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullarini joriy qilish va rivojlantirish yuz bermokda. Respublika arxiv ishini rivojlantirish fondining asosiy qismini bundan keyin ham davlat byudjeti mablag'lari tashkil etadi.

Shuning bilan birga, yangicha xo'jalik yuritish usuliga o'tish arxivlarga tashkilot va korxonalar, jamiyat va kooperativ, ijodiy muassasalar hamda aholiga shartnoma asosida pulli xizmat ko'rsatishni kengaytirish hisobiga byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarining topish imkoniyatini berdi.

Davlat arxivlarini shartnoma asosida bajaradigan pullik xizmat ishlari turlari quyidagilardan iborat:

[43] Namangan Viloyati Chust tuman davlat arxivi ma'lumonomasidan-B.4.

1. Vazirlik, idora va boshqalarga yig’majildlar nomenklaturasini ishlab chiqishda, ish yuritishni tashkil qilishda metodik va amaliy yordam ko’rsatish.

2. Hujjatlarni tanlab olish va tartibga solish, jumladan shaxsiy arxivlarda ham shunday ishlar amalga oshirilishi mumkin.

3. Mavzuli so’rovlarni, shuningdek mulkdorlik huquqi to’g’risida, sulolaviy xususdagi so’rovlarni bajarish.

4. Tashkilotlarni axborot bilan ta`minlash.

5. O’quv yurtlari, ijodiy muassasalar va boshqa tashkilotlar buyurtmasi bilan hujjatlar to’plamlari, hujjatlar ko’rgazmalari, ekskursiyalar tayyorlash[44].

Arxiv tashkilotlarining faqat 38%i oliy ma`lumotli xizmatchilar bilan ta`minlanganligini va tarixchi-arxivchi mutaxassislarni o’ta kamligini (3,6%) hisobga olib, bu sohani oliy ma`lumotli mutaxassislar bilan qondirish uchun shoshilinch tadbirlar ko’rish zarur edi. Hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, arxiv tashkilotlarida kadrlar bilan ishlashni tashkil qilish bilan bog’liq qator muammolar hal qilinmoqda. Arxiv tashkilotlari kadrlarni ilmiy asosda tanlash va ulardan foydalanish; barcha turdagi xizmatchilar malakasini, jumladan, g’oyaviy-nazariy, madaniy saviyasini oshirish; ongli mehnat intizomini tarbiyalash; jamoada yaxshi ruhiy holatni vujudga keltirish kabi masalalar bo’yicha tadbirlar o’tkazmoqda.

Ishchi-xizmatchilarning malakasini oshirish kadrlar bilan ishlashning ajralmas va muhim qismi hisoblanadi. Bu arxiv sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirishni, ulardan unumli foydalanish-ning zarur sharti hisoblanadi. Arxiv tashkilotlarida xodimlar malaka-sini oshirishning jamoa va yakka tartibdagi shakllari keng qo’llaniladi. Malaka oshirishning keng tarqalgan va samarali shakllariga quyidagilar kiradi:

-universitet, institutlarda aspiranturada o’qish va nomzodlik dissertatsiyasi ustida mustaqil ishlash;

-rahbar va ilmiy xodimlarning doimiy ishlovchi ilmiy seminari;

---

[44] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. – Б.41.

-maqolalar, taqrizlar, ilmiy axborotlar yozish;

-arxivshunoslik, hujjatshunoslik, arxeografiya, tarix fanlari dolzarb muammolari bo'yicha ma`ruzalar, seminarlar, konferentsiyalar tashkil qilish;

-Tex minimum bo'yicha mashg'ulotlar, arxiv texnik xodimlar uchun seminarlar. Davlat arxivlarida hujjatlardan foydalanishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1. *Idoralarni arxiv hujjatlarining mazmunidan xabardor qilib turish.* SHu maqsadda arxiv axborot yozib yoki arxivda saqlanayotgan u yoki bu mavzuga doir hujjatlar ro'yxatini tuzib idoralarga jo'natadi.

2. *Davlat arxivi hujjatlarini e`lon qilish faoliyati.* Bu maqsadda arxivlarda hujjatlar to'plamlari tayyorlanib, ular nashriyotlar orqali chop etiladi va ko'pgina hujjatlar gazeta va jurnallarda bosib chiqariladi (hujjatlarni e`lon qilish usuli arxeografiya kursida yoritiladi).

3. *Hujjatlardan foydalanishning asosiy shakllaridan yana biri o'quv xonalarida foydalanishdir.* Har bir davlat arxivida o'quv xonasi bo'ladi. Tarixchilar va boshqa tadqiqotchilar hujjatlardan bevosita arxiv o'quv xonasida foydalanishadi.

4. *Ko'rgazmalar tashksh qilish, al'bomlar, plakatlar chiqarish.* Tarixiy yubileylarga, muhim voqealarga, mashhur kishilar yubileylariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinadi, al'bom va plakatlar chiqariladi, ko'rgazmalarga hujjatlar, fotosuratlar, xaritalar, kitoblar, varaqalar va boshqa manbalar qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

5. *Ilmiy-ommabop risolalar, matbuot uchun maqolalar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar tayyorlash.* Davlat arxivlari ilmiy xodimlari arxiv hujjatlari haqida, ayrim tarixiy mavzular bo'yicha risolalar tayyorlashadi. Ularning mavzulari muhim tarixiy voqealarga bag'ishlangan bo'ladi. Bundan tashqari ular matbuotda arxiv to'g'risida, uning hujjatlari to'g'risida maqolalar yozishi, televideniе va radioda chiqishlar qilishi, muhim ahamiyatga molik hujjatlarni chop etishlari mumkin.

6. *Hujjatlardan foydalanishning yana bir yo'li – bu arxivda tarix darslari o'tishni tashkil qilish va o'quv yurtlari uchun ko'rgazmali ko'llanmalar tayyorlashdir.* Universitetlar, institutlar, kollej, litseylar va maktablar o'qituvchilari ayrim tarix darslarini arxivda uning hujjatlaridan foydalanib o'tishlari mumkin. Tarix kursining ayrim davrlari, mavzulari bo'yicha diafil'mlar, kinofil'mlar, hujjatlarning foto-ksero-nusxa to'plamlarini tayyorlash mumkin.

7. *Arxiv hujjatlaridan foydalanishning muhim shakli – bu arxiv ma`lumotnoma (spravka) lari, hujjatlardan nusxalar, ko'chirmalar berishdir.* Tashkilotlar, fuqarolar arxivlarga har xil ma`lumotlar so'rab, xat yozadilar. Fuqarolar ko'pincha u yoki bu idora, o'quv yurti, korxona yoki xo'jaliklarda ishlaganligi yoki o'qiganligini tasdiqlovchi hujjatlar, ma`lumotlar so'rab murojaat qiladilar. Davlat arxivlari fuqarolarning bunday so'rovlarnga arxiv ma`lumotnoma (spravka)lari tayyorlab beradilar. Arxivning bu ma`lumotnomasi asosida fuqarolar keksalik nafaqasi olishadi. Ayrim hollarda fuqarolar o'quv yurtini tugatganligini tasdiqlovchi diplomlarini yo'qotib, o'z mutaxassisligini, ma`lumotini tasdiqlovchi hujjat so'rab arxivga murojaat qilishadi. Arxiv bu haqda asosli ma`lumotnoma bera oladi. Xuddi shunday arxiv tashkilotlaridan ayrim hujjatlarini so'rab yozgan xatlari bo'yicha ham so'ralgan hujjatlarning nusxasini tayyorlab, tasdiqlab jo'natishi mumkin.

8. *Davlat arxivi yig'majildlarni tashkilotlarga ulardan vaqtinchalik foydalanish uchun ham berishi mumkin.* Hujjatlardan foydalanishning bunday shakli ayrim hollarda oliy davlat organlari, sud, prokuratura, davlat xavfsizligi organlarning talablari bo'yicha amalga oshiriladi[45].

2.3. Farg'ona viloyat Davlat arxivlarida ish yuritishni tashkil etish.

Bu arxiv 1925-yil Farg'ona viloyati arxiv byurosi sifatida tashkil qilingan. 1927-yilga kelganda esa Farg'ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida faoliyat

[45] Tursunov B. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi// O'quv –uslubiy majmua. Namangan 2013.-B72-73

yuritgan. 1938-yildan Farg'ona viloyati davlat arxivi boshqarmasi deb o'zgartirilgan. 1940-yilda esa Farg'ona viloyati arxiv bo'limi va Farg'ona viloyati davlat arxivi sifatida qayta tashkil qilingan[46].

Farg'ona viloyati tarixi jamg'armasida Farg'ona shahri, Namangan va Andijon viloyatlari tarixiga oid hujjatlar mavjud. Shuningdek, Farg'ona viloyati ishchi-sovet, soldat va dehqonlari xo'jaliklari jamg'armasida shu viloyatlardagi sovet hukumatining o'rnatilishi, shuningdek Farg'ona viloyati boshqaruv tizimi, madaniy qurilish, ocharchilikka, ishsizlikka, xotin-qizlarni jamoat ishlariga jalb qilishga oid hujjatlar bor.

Sanoat jamg'armasida esa bevosita o'lkada mahalliy va turli xil hunarmandchilikning tarixiga oid "Sredazneft" va "Azot" kabi ishlab chiqarish korxonalari, yog' va boshqa turli kambinatlar, ipakchilik kambinatlari, paxta tozalash va irrigatsiya ishlariga oid hujjatlar bor. Viloyatdagi bir qator elektirlashtirishga oid hujjatlar ham mavjud. Farg'ona elektr xo'jaligini boshqarish jamg'armasida mujassamlashgan, qishloq xo'jaligi jamg'armasida, qishloq xo'jaligini rivojlanishi, yer-suv islohotlari, yirik kolxoz va sovxozlarni qurilishi, paxta, uzum, chorvachilik shuningdek, qishloq xo'jaligining yangi texnikalar bilan ta'minlanganligiga oidhujjatlar mavjud[47].

Xalq ta'lim jamg'armasida, viloyatdagi oily o'quv yurtlarini tashkil etilishiga, maktab, bolalar madaniy uylari, o'rta maxsus bilim yurtlariga oid hujjatlar mavjud. Kasaba uyushmalari jamg'armasida, savodsizlikka
qarshi kurash, qishloqlar ustidan boshqaruv mamlakatda sobiq sovet davri boshqaruviga shuningdek, Ikkinchi jahon urishi davrida front ortidagi yordamlashish tarixiga oid hujjatlar bor.

Xalq xo'jaligini qayta qurish jamg'armasida korxonalarning, aholi punktlarining qurilishiga oid hujjatlar mujassamlashgan.

---

[46] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. – Б.61

[47] Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи ва Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Тошкент, 2010. – Б.62

Shaxsiy jamg'armada esa O'zSSRda xizmat qilgan ko'pgina kishilar to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar joy olgan. Sobiq SSSR yuqori kengashi, shuningdek O'zSSR mahalliy ishlab chiqarish, paxta, chorvachilik, ishichi hizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan munosabatlarni yoritib beradi.

Farg'ona viloyat davlat arxivida 711 jamg'arma, 1917-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan 152519 yig'ma jild va 1918-yildan hozirgi davrgacha 4604 saqlov birligidagi suratli hujjatlar mavjud. Arxiv fondlari Farg'ona viloyati va Farg'ona shahri tarixini, qisman bir vaqtlar Farg'ona viloyati tarkibiga kirgan Andijon va Namangan viloyatlari tarixini ham aks ettiradi. Farg'ona viloyat ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetining fondi (121-f.) vodiyda Sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishi, ocharchilik va ishsizlikka qarshi kurash, istiqlolchilik harakati, ayollarni ozodlikka chiqarish kabi masalalarni yoritadi. Arxiv fondlaridagi hujjatlar viloyatda sanoat korxonalarining bunyod etilishi, sug'orish shoxobchalarining barpo etilishi, jumladan, Katta Farg'ona kanalining qurilishi, viloyatda maorif va madaniyatning rivojlanishi haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Farg'ona viloyat davlat arxivida fotosuratlar fondi ham mavjud bo'lib, ularda viloyatda ishga tushirilgan korxonalar, sug'orish inshootlari, bunyod etilgan qasaba (posyolka) laming umumiy ko'rinishi aks ettirilgan. Fondda deputatlar, faxriylar, ishlab chiqarish ilg'orlarining ham suratlari saqlanadi. Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida Farg'ona viloyat davlat arxivining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, Oltiariq, Quva, Buvayda, Marg'ilon va Uchko'prikda xo'jalik hisobidagi shaxsiy tarkib arxivlari tashkil etilgan[48].

Kadrlardan to'g'ri foydalanishda har bir xodimni vazifalarini belgilab beradigan lavozim yo'riqnomasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'riqnomalar arxiv tashkiloti bo'limlari (bo'lim, guruh, laboratoriya) to'g'risidagi nizomlar asosida tuziladi. Viloyat davlat arxivi direktori lavozim yo'riqnomasini viloyat boshqarmasi boshlig'i, viloyat davlat arxivi xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini viloyat davlat arxivi direktori tasdiqlaydi.

[48] Фаргона вилоят давлат архивининг лавозимлар йурикномаси.- Б, 1-2.

Arxivda ish yuritish tizimida xodimlar uchun alohida ish yuritishi yo’riqnomasi tashkil etilgan bo‘lib unda birinchi toifali arxivchi uchun quyidagilar ko‘rsatilgan:

Katta fond saqlovchining bilishi lozim bo‘lgan qoidalar:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to‘g‘risidagi va davlat arxivi nizomlarini; Arxiv ishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonunini ; Davlat va idora arxivilarining ishlarining asosiy qoidalarini; Ish yuritishning yagona davlat sistemasi (IDYaS) qo‘llanmasini 140 son qarorini; Hujjatlarni saqlash muddatlari va moddalari ko‘rsatilgan ro‘yxatni;O‘zarxiv Agentligining hujjatlarni saqlovini ta'minlash , ular qimmatdorligini ekspertiza qilish va ularni davlat saqloviga topshirish bo‘yicha me'yoriy va uslubiy ko‘rsatmalarini; Viloyat "Arxiv ishi boshqarmasi", viloyat davlat arxivi buyruqlarini ; Lavozimlar yo‘riqnomani.

Katta fond saqlovchi arxivda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Davlat arxivining jamlash manbaalarini aniqlaydi, ro‘yhatini tuzadi va ularga o‘zgartirishlar kiritadi; Jamlash manbaalari bo‘lgan tashkilotlardan hujjatlarni davlat saqloviga topshirilishini ta'minlaydi va nazorat qilib boradi; Idora arxivlarida hujjatlar saqlovini ta'minlanishi yuzasidan uslubiy yordam byeradi; Idora arxivlarida tartibga keltirilgan hujjatlarning holati va sifatini, hamda ularni davlat saqloviga topshirilish holatlarini tekshirib boradi; Davlat arxivi nazoratidagi tashkilotlarning kuzatuv papkalarini tashkil etadi;Idora arxivlari hujjatlari hisobini oladi yuritish ishlariga yordam beradi; Tashkilot , muassasalarda idora arxivlari ishini va ish yuritishni tashkil etish bo‘yicha jamoat ko‘riklari va seminarlarni tashkil etishda ishtirok etadi; Arxivning uslubiy komissiya yig’ilishlarida, idora arxivlarining ish yuritishni tashkil etish to‘g‘risidagi yig’ilishlarida, hamda ekspert komissiya yig‘ilishlarida aktiv ishtirok etadi; Ho‘jalik guruxi a'zolari tomonidan tayyorlagan doimiy va shaxsiy tarkib yig‘majildlari ro‘yhatlarini tuzish sifatlariga, fond hujjatlarini to‘liqligiga e'ti bor bergan holda hulosalar beradi; Tashkilot va muassasalarda ish yuritishni tashkil etish masalalari yuzasidan mavzuli va yalpi tekshiruvlar o‘tkazadi. Tashkilotlar bo‘yicha ko‘rsatilgan tavsiyalarni bajarilishini nazorat qiladi;Davlat arxivi nazoratidagi tashkilotlarga

yig‘majildlar nomenklaturasi arxiv va EK nizomlarini tuzishda uslubiy va amaliy yordam beradi .Har besh yilda ikki marta idora arxivlarini pasportini tuzadi; Idora arxivlarida saqlanayotgan shaxsiy tarkib hujjatlarini kartotekasini tuzadi;Bajargan ishlarni hisobini yuritadi va har chorak oxirida davlat arxivi boshlig‘iga hisobot beradi .

Arxivda katta fond saqlovchi: Hujjatxonadan katta fond saqlovchi ruxsati bilan kerakli fond hujjatlari ro‘yhati, zarur bo‘lgan ilmiy-uslubiy ko‘rsatma , qo‘llanma va adabiyotlardan oladi va foydalanadi; Idora arxivlarining yuqori tashkilotlariga ish yuritish, arxiv hujjatlarini tartibga keltirish va ularni saqlash sharoitlari to‘g‘risida axborot beradi; Yilik ish rejasini, arxiv direktorining buyruqlari va ko‘rsatmalarini bajarmagani uchun javob beradi.

Shuningdek, Arxivda ish yuritish , Hukumat va yuqori tashkilot qaror, buyruq , ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarili ustidan nazorat; Fuqarolar murojaatlari bo‘yicha so‘rovlarga ma'lumotnomalarni berilishini “davlat arxivlarining asosiy ish qoidalari” ; Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida berilishini ta'minlash; Filial arxivchilarini ish va kasb malakasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha ishlar olib boradi

Hujjatlardan siyosiy ,xo’jalik ,ilmiy,ijtimoiy-madaniy maqsadlarida foydalanishi uchun davlat arxivlarida o’quv zallari faoliyat ko’rsatadi.

O’quv zalining ish tartibi tadqiqotchilarning kizikishlarni xisobga olgan xolda belgilanadi.

Tadqiqotchilar O’zbekiston respublikasi fuqarolari hujjatlar bilan ishlashga tadqiqotlar tematikasi bo’yicha vakolatni tashkilotning xati orkali yo’l qo’iladi.Xatda tadqiqotchining, ismi, familiyasi, lavozimi, unvoni, mavzusi, tadqiqotning xronologik ramkasi va maqsadi ko’rsatilishi lozim.

Xat maxsus blankaga yoziladi va tashkilot raxbarini (ilmiy kotib)tomonidan imzolanadi.

Oliy o’quv yurtlarining talabalariga hujjatlar bilan ishlashga arxiv hujjatlari bilan ishlash zaruriyati izoxlab berilgan ,rektor prorektor yoki fakul’tet dekani imzolangan xat asosida ruxsat beriladi.

Ayrim fuqarolar hujjatlar bilan ishlashga istisno tarikasida shaxsiy arizasiga asosan qo’iladi.

Chet el fuqarolari bo’lgan tadqiqotchilari O’zbekiston davlat arxivlar hujjatlari bilan ishlashga O’zbekiston respublikasi Bosh arxiv boshkarmasi belgilagan tartibda qo’iladi.

Tadqiqotchilarga hujjatlardan foydalanish uchun ruxsat davlat arxivi raxbarlarini tomonidan tadqiqot mavzusi xajmi bilan belgilanadigan lekin bir yildan ko’p bo’lmagan muddatga beriladi.O’quv zalidagi mashgulot muddatini uzaytirishda yoki mavzuni uzgartirishda tadqiqotchi yangi xat olib kelishi kerak.

Arxiv hujjatlari ustida ishlashga qo’yilgan tadqiqotchi anketa tuldirish, mavjud koidalar bilan tanishtirilishi va pasport ko’rsatishi kerak.

O’quv zalida xar bir tadqiqotchiga «shaxsiy delo» yuritiladi va unga qo’ydagilar kiritiladi :

- tadqiqotchining anketasi
- yigmajild berishga buyurtma
- hujjatlardan nusxa kuchirishga buyurma:

Shaxsiy delolar o’quv zalida saqlanadi va tadqiqot tugagandan bir yildan sung arxivning arxiviga topshiriladi.

Davlat arxivining o’quv zaliga tadqiqotchilarning tashrif buyurishini kayd etish uchun maxsus jurnal yuritiladi.

O’quv zaliga tadqiqotchilar fakatgina mavzuga taalukli bo’lgan yigma jildlargina beriladi.Hujjatlarni va arxiv ma`lumotnomalarini olish uchun tadqiqotchilar yigma jild berilishiga buyurtma tuldiradilar.Yigma jildlar va arxiv spravochnigi tadqiqotchilarga tilxat asosida beriladi.

Tadqiqotchilar ularning saqlanishi uchun javob beradilar .Bir vaktning uzida tadqiqotchi nomidagi yigma jildlar 20 dan , ro'yxatlar 5 ta dan ortik bo'lmasligi kerak .

Har kuni ish tugagandan keyin tadqiqotchilar hujjatlarni o'quv zali xodimlariga topshiradilar .Tadqiqotchilardan foydalanilgan hujjatlarni olgan o'quv zali xodimi buyurtmaga imzo chekadi.Agar qaytarilgan hujjatlarda kamchilik yoki zararlanganlik kuzatilsa bu xakda akt tuziladi agar zarar tadqiqotchi tomonidan yo'l qo'yilgan bo'lsa u arxiv raxbarini tomonidan belgilangan muddatga o'quv zalida ishlash huquqidan maxrum kilinadi. O'g'irlik yoki qastdan zarar etkazish, shuningdek hujjat matniga o'zgartirish kiritilgan xollarda aybdor qonunda belgilangan tartibda javobgarlikga tortiladi.

O'quv zalida ishlayotgan tadqiqotchilar fakatgina mavzu yuzasidangina hujjatlardan ko'chirma olishlari ,nusxa kuchirishga buyurtma berishlari mumkin .Zaruriy bo'lganda ko'chirmalar o'quv zali xodimi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Arxiv hujjatlaridan tadqiqotchi buyurtmasiga ko'ra nusxa ko'chirish manfaatdor muassasa xatiga yoki maxsus so'rovga arxiv raxbariyati ruxsati bilan amalga oshiriladi.Buyurtma maxsus blankani tuldirish bilan rasmiylashtiriladi .Hujjatlardan nusxa tayyorlash uchun xak tulangandan keyin amalga oshiriladi.

Arxivga zarur nusxa kuchirish apparaturasi bo'lmagan takdirda nusxa kuchirish manfaatdor muassasa va tashkilot kuchi bilan arxiv binosida, boshka muassasalarning foto labaratoriyalarida arxiv xodimlarini nazorati ostida amalga oshiriladi.Foto nusxa negativlari muassasa va tadqiqotchilarga berilmaydi va arxiv ixtiyoriga utadi .Istisno tarikasida muassasa xati bo'yicha va raxbarini ruxsati bilan muzey ko'rgazmasi restovratsiyasi va bezatish bilan shugillanayotgan muassasalarga vaktinchalik foydalanish uchun berilishi mumkin[49].

Hujjatlardan barcha shakllari xisobga olinishi shart. Xisobga olish axborot va ilmiy foydalanish bo'limi yoki uning vazifasini bajaruvchi boshka bo'linma (shaxs) zimmasiga yuklatilishi kerak.

[49] Фарғона вилоят давлат архиви маълумотномасидан.Б.31.

Ko’rgazma ,ekskursiya, lektsiya, uchrashuv kechalari ,davriy matbuot uchun makolalar radio va televideniyada chikishlar, so’rovlarni bajarish kabi ishlarni uyushtirish maxsus shaklarda xisobga olinadi.

Ijtimoiy huquqiy xarakterdagi so’rovlarni bajarishni xisobga olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tadqiqotchilar va ularning tashriflarining soni tadqiqotchilar va ularning shaxsiy delolarini kayd etish jurnalida va o’quv zalidagi kayd etish jurnalida xisobga olinadi.

Tadqiqotchilar va o’quv zalida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar xisobi kartochkalarda yuritiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni qayd etishim mumkinki, bugungi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar Farg‘ona vodiysidagi arxivlar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatmoqda.Jumladan arxivlar uchun maxsus binolar, xodimlar malakasini oshirish uchun turli o‘quv kurslari, ilmiy semenarlar, xalqaro hamkorliklar, turli xil arxiv kechalari tashkil qilinmoqda. Arxiv soxasini rivojlantirish, arxiv ishini takomillashtirish bo‘yicha qonun, qaror, nizomlar ishlab chiqilmoqda.

Farg‘ona vodiysida ham arxivlar qadimdan paydo bo‘lgan bo‘lsada turli urushlar, tabiiy ofatlar, xalokatlar natijasida yo‘qolib ketgan. Ruslar tomonidan Qo‘qon xonligi tugatilib, uni egallagach O’lkada mustamlakachi ma’muriyatning faoliyati jarayonida ko’plab hujjatlar vujudga kelgan. General-gubernatorlik mahkamasidan tortib to qishloq boshqaruv idoralariga qadar hujjatlar yaratilib, ular bevosita shu muassasalarning o’zida saqlangan. Shunday qilib, chor mustamlakachiligi davrida Turkistonda har bir muassasa qoshida idoraviy arxivlar vujudga kelgan. Ammo bu idoraviy arxivlarni o’zaro bog’lash va yagona davlat arxivlari tizimini barpo etish e’tibordan chetda qoldi.

Farg‘ona vodiysida vujudga kela boshlagan idoraviy arxivlarning faoliyati sust tashkillashtirilgan edi. Ko’p idoralarda arxivlarni saqlash uchun maxsus ajratilgan xonalar yo’q edi. Shu sababdan, hujjatlar ko’pincha zax qaznoqlarda saqlangan.

Bundan tashqari, hujjatli manbalarni saqlash ishiga tashkilot rahbarlarining o’zlari ham jiddiy zarar etkazganlar. Ular qog’ozlarni yakkash o’zlari ko’rib chiqib, keraksiz deb hisoblaganlarini yo’qotib yuborganlar. Hujjatli materiallarni yo’q qilish o’sha davrdayoq ilg’or kishilarni tashvishga solib qo’ygan edi.

1914-yilda Orenburgda o’tkazilgan gubema olimlari arxiv komissiyasining I s’yezdida shu komissiya a’zosi A. Popov quyidagilarni ta’kidlab o’tgan edi: “Keyingi 12 yil davomida yo’qotilgan yuz minglab yig’majildlarning anchagina

qismi O’rta Osiyoning qo’shilishi va bosib olinishi, Buxoro va Xivaga qilingan harbiy yurish bilan bog’liq edi”.

Turkistonda hujjatlarni ko’p miqdorda yo’q qilinishi odat tusiga kirgan edi. Misol tariqasida quyidagi faktni kelitirish mumkin. Farg’ona viloyati harbiy shtabida 25 yil davomida yig’ilib qolgan hujjatlarni saralash chog’ida 105 pud “keraksiz” arxiv materiallari savdogarlarga o’rov sifatida sotib yuborilgan. Tez orada muhim ahamiyatga ega hujjatlar bozorlar va rastalarda ko’zga tashlanib qolgan edi.

Sobiq ittifoq davriga kelgach esa, barcha sohalar qatori arxivlar ham markazga bo‘ysundirildi. Sekin astalik bilan Farg‘ona vodiysida ham viloyat, shahar va tuman arxivlari faoliyat ko‘rsata boshladi. Jumladan, Farg‘ona viloyat davlat arxivi 1925 yilda Farg‘ona viloyati arxiv byurosi sifatida, 1927 yildan Farg‘ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida faoliyat yuritib, 1938 yildan Farg‘ona viloyati davlat arxivi boshqarmasi deb o‘zgartirilgan. 1940 yilda esa Farg‘ona viloyati arxiv bo‘limi va farg‘ona viloyati davlat arxivi sifatida qayta tashkil qilindi.

Andijon viloyat davlat arxivi1927 yildan 1930 yilgacha Farg‘ona va Andijon okruglararo arxivi sifatida, 1936 yilgacha Andijon shahri arxivi sifatida tashkil etilgan va 1941 yilda Andijon viloyati davlat arxivi deb qayta nomlangan.

Namangan viloyat davlat arxivi 1936-yil Namangan davlat arxivi bazasi asosida tashkil etilgan. 1941-yilda Namangan viloyat davlat arxivi deb ыayta nomlangan. 1960 yildan Andijon viloyat davlat arxivining Namangan shahar filiali sifatida faoliyat yuritgan. 1986 yilga kelib, Namangan viloyat davlat arxivi deb qayta nomlangan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mazkur arxivlar viloyat davlat arxivlari deb nomlangan.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiysidagi arxivlar Respublikamizdagi qolgan arxivlar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Prezidentimiz farmonlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga va “O‘zarxiv” agentligi

ko‘rsatmalariga amal qiladilar. Farg‘ona vodiysidagi arxivlar “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq:

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan, tegishli hududda joylashgan davlat arxivlari va idoraviy arxivlarda turgan arxiv hujjatlarining saqlanishi uchun lozim darajadagi shart-sharoitlarni ta'minlaydilar;

Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan, tegishli hududda joylashgan arxivlar va idoraviy arxivlarda turgan arxiv hujjatlarining holati ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

tegishli hududdagi davlat arxivlarini moliyalashtirish miqdorini o‘z vakolatlari doirasida belgilaydilar.

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Ushbu arxivlarda hujjatlarni jamlash, hisobga olish, saqlash va foydalanishga topshirish uchun barcha shart sharoitlar mavjud. Shuningdek hujjatlarni yanada uzoqroq saqlash, ziyon yetkazmaslik va eng asosiysi foydalanuvchilar uchun hujjatlarni oson topish va ulardan foydalanishlari uchun hujjatlarni elektron nusxalarini yaratilmoqda. Bundan tashqari arxivlar zamonaviy texnik jixozlar bilan taminlanmoqda.

Иловалар

Андижон вилоят Давлат архивининг эски биносига 2011-йил 4 февралда қўшимча 3 қаватли янги бино қурилишининг бошланиши



Қурилиш биносининг бошланиш жараёни



2011-йил 1 май холатидаги қурилиш жараёни



2011-йил 7 июнь холатидаги қурилаётган бинонинг учинчи қаватининг қурилиш жараёни



2011-йил 27 июнь холатидаги қурилаётган бинонинг ташқи фасат қисмининг қурилиш жараёни



Андижон вилоят Давлат архивига қўшимча 3 қаватли сақловхона биносининг 2011-йил 22 август холатида қуриб битказилган холати



Андижон вилоят Давлат архивининг асосий кириш зали



Бинонинг ички йўлак кўриниши



Техника хавфсизлиги холати



Бинода мавжуд винтилятца



Андижон вилоят Давлат архивининг 2015-йил холати суъратлар кетма-кетликда







Сақловхоналардаги хужжатлар кўриниши суъатлар кетма-кетликда







Ходимларнинг иш жараёни



FOYDALANILGAN ABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar

1.1.Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида
Т.: Ўзбекистон, 1995. – 332 б.
1.2.Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
1.3.Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
1.4.Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
1.5.Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
1.6.Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маьрифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.

II. Adabiyotlar

2.1. Alimov I.A. Arxivshunoslik. – Andijon, 2015.

2.2. Alimova N.I. Noyob qo'lyozmalar taqdiri. // Muloqot. – 2001. – №4. – B. 34-36.

2.3. Белов Г.А. "Теория и практика архивного дела в СССР". Учебное пособие. – М; Типография Воровского, 1958.

2.4. Волков П. Архивные фотодокументы и пресса. – Сов. архивы. 1966. №2.

2.5. Диденко М.А. Художественные оформление наглядных средств агитации и пропаганды. – М., 1971.

2.6. Жумаев У. Ўрта Осиё ва Ўзбекистонда архив иши тарихи, Ўзбекистоннинг асосий архивлари. – Т., 2010.

2.7. Издание документов в научно-популярных целях. – М., 1975.

2.8. Государственые архивы СССР справичник 2.ч. – Л.72-75.

2.9. Кинодокументы в научных исследованиях. – Восп.архивоведения. 1962 №2.

2.10. Митяев К.Г. Теория и практика архивного дела в СССР. – М., 1946.

2.11. Морозов С. Фотография в науке. – М., 1955.

2.12. Новосспаский В. Фотография в книге. – М.,1973.

2.13. Ibrohimov N. Dunyoga sochilgan xazina. // “O’zarxiv” agyentligi axborotnomasi. // 2003. – №30. – B.4-15.

2.14. Исакова М.С. Архивы – хранища фактов истории. // Народное слово, 18 апреля 2001. – С.3.

2.15. Исакова М.С. O’zbekistonda arxiv ishini rivojlantirishning huquqiy asoslari. // Qonun himoyasida, 2003. – №10. – B.31-33.

2.16. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012.

2.17. Иофе В.Г. Новое в управлении архивным делом Республике Узбекистан. // Отечественные архивы. – 2006. – №1. – С.126-128.

2.18. Тилеукулов Г.С. Архивное дело в Узбекистане (1918-1980 г.г.) Опыт и проблемы.: Дисс... на соиск. ученой степени канд.ист.наук. – Т.: ТашГУ, 1995.

2.19. Хабибуллаев Н. История письменности и рукописной книги народов Средней Азии (IX – начале XX вв.) – Т.: УМЭД, 2008.

2.20. Ўзбекистон ССРнинг маъмурий-территориал бўлиниши. – Т., 1954. – Б.1-34.

2.21. G’ulomov S., Ibodullayeva I., Axmedov E. Mustaqil O’zbekiston. – T.: Mehnat 2001, – B. 20-21.